

**O‘zbekiston Respublikasi
Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi**

Tarbiya

fanidan uslubiy qo‘llanma



Toshkent 2025-yil

“Tarbiya” fanidan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar bilan ishlashda o’qituvchilar (fan o’qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun ishlab chiqilgan uslubiy qo’llanma 2025-yilning 25-mart kuni Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi huzuridagi “Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi bo’yicha Ilmiy-metodik kengashning 1-sonli yig’ilishida muhokama etilib, kengash qaroriga binoan nashrga tavsiya etildi.

Mualliflar: Risyukova Yuliya Vasilyevna
Alimova Gulmira Kabuljanovna
Mo’minov Sulton Akbar o’g’li

Taqrizchilar:

F.Qodirova	Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi mudiri, professor.
U.Xudayberdiyev	O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo’limi bosh mutaxassisi
G.Xasanova	Toshkent shahri, Bektemir tumani 290-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi inklyuziv ta’lim sinfi o’qituvchisi

Tahrirchi:


M.Kasimova	Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi
-------------------	---

Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun

“Tarbiya” fanidan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar bilan ishlashda o’qituvchilar (fan o’qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun mo’ljallangan.

3-sinf

Tarbiya darsligi yuzasidan uslubiy qo'llanma



Kirish

Har bir mamlakat taraqqiyotining muhim sharti yosh yetishib kelayotgan avlodni har tomonlama mukammal bo'lishi, jamiyatning kelajagi esa uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta'lim samaradorligini oshirish masalasi bugungi kundagi muhim vazifalardan biriga aylanib kelmoqda.

Ayniqsa davlatning ijtimoiy siyosatida voyaga yetmagan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ayniqsa ularga ta'lim berish, alohida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, shuningdek, ularni jamiyatda o'z o'rinlarini egallashlariga ko'maklashish alohida ahamiyat kasb etadi.

So'ngi yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga munosib sharoit yaratish, ular ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish borasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Yangi tahrirda qabul qilingan **“Ta'lim to'g'risida”**gi Qonunga ham inklyuziv ta'lim haqida modda kiritildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **50-moddasida “Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi”** jumlasining kiritilishi ham diqqatga sazovordir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'z sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta'lim maktablarida bilim olishi, do'stona muhitni, teng huquqligining kafolatlanishi, turli xil zo'ravonlik hamda kamsitishlikka yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga bir sinfda bir xil sharoitda ta'lim-tarbiya olishi ko'zda tutilgan.

Ushbu **“Tarbiya”** fanidan inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilar (fan o'qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun mo'ljallangan bo'lib yakka hamda guruhli sinf mashg'ulotlarida ishlash usullari yuzasidan yondashuv yoritib berilgan.

Qo'llanma amaldagi o'quv reja va dastur, darsliklar asosida yaratilgan bo'lib, sinfda bajaradigan vazifalari, savollarga beradigan javoblari, uy vazifasini bajarishi, yangi dars mavzusiga tayyorlanishi, shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlari, tibbiy tashxislari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga moslashtirilgan holda ishlangan.

Undan tashqari qo'llanmada umumta'lim maktabida tashkil qilingan inklyuziv ta'lim sinflaridagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maxsus pedagoglar oddiy bilim beruvchigina bo'lib qolmasdan ta'lim jarayonini,

sifatini ta'minlovchi asosiy tashkilotchi hisoblanishi har tomonlama ochib berilgan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni Tarbiya fani yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma orqali go'zal insoniy fazilatlar, chuqur foydali bilimlar bilan uqtirishdir. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – o'quvchilarni yangi davrning mard va jasur, adolatli va sadoqatli, mehrli va oqibatli, hayoli va oriyatli, vatanparvar, ezgu maslagida qat'iyatli, mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish va ijtimoiy hayotga moslashtirishdir.

Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kritik (tanqidiy) fikrlash (critical thinking), kreativlik (creative thinking) muloqot qilish kommunikatsiya (communication), jamoaviy ishlash ko'nikmasi kooperatsiya yoki kollaboratsiya (coordinating with others) ko'nikmalari rivojlantirish maqsad qilib olingan.

Eslatma! Inklyuziv ta'lim sinfi qabul qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalari bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi maxsus pedagog, psixologi, tibbiyot xodimi hamda ota-ona bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Shu asosida ota-onalar uyda tegishli vazifalarni bajarish, o'rgangan bilimlarini nazorat qilib borishi ko'rsatib o'tilishi maqsadga muvofiq.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish



1-rasm. Sinflar va laboratoriyalardagi o'quvchilar o'tirish joylarini taqsimlashda o'quvchining salomatligi holati e'tiborga olinishi

1. Evakuatsiya rejasi – bu yerda binodan xavfsiz chiqish yo'llarini ko'rsatuvchi evakuatsiya rejasi joylashgan. Bu jadval binodan favqulodda holatlarda tez va xavfsiz chiqishni ta'minlash uchun muhim.

2. Doska – odatiy sinfxonalarda mavjud bo'lgan yozuv va dars o'tish uchun mo'ljallangan doska.

3. Brayl yozuvli kompyuter – ko'rish qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar uchun Brayl shriftli kompyuter va klaviaturalar.

4. Moslashtirilgan o'quv stollari – umumiy o'quvchilar uchun, shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham qulay bo'lgan maxsus stollar.

5. Nogiron aravasidagi o'quvchi uchun stol – nogironlar aravasidagi o'quvchilarga moslashtirilgan maxsus stol. Stolning balandligi va kengligi o'quvchining harakatlanishiga mos keladi.

6. Xavfsizlik tizimi (qo'ng'iroq tugmasi) – bu yerda favqulodda holatlarda qo'ng'iroqni bosish mumkin bo'lgan xavfsizlik tugmasi mavjud.

7. Eshik va kirish uchun maxsus moslamalar – eshik hududida nogironlar uchun maxsus qulay kirish, pandus va eshik ostonasini ko'rsatadi.

9. "Chiqish" belgisi – evakuatsiya yoki favqulodda holatlarda chiqish yo'lini ko'rsatuvchi yozuv.

10. Evakuatsiyaning audio-va vizual belgilari – eshitish va ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar uchun maxsus evakuatsiya belgisi.

11. Video kuzatuv kamerasi – sinfnings xavfsizligini ta'minlash uchun o'rnatilgan kamera.

12. Tutqichlar – harakatlanishda qiyinchiliklar bo'lgan o'quvchilar uchun o'rnatilgan maxsus tutqichlar.

13. Evakuatsiya va xavfsizlik uchun audio-va vizual ma'lumot taqdimotchilari evakuatsiya jarayonini osonlashtirish uchun audio va vizual ko'rsatmalar.

14. Taktill yo'l – ko'zi ojiz bolalar uchun joylashtirilgan maxsus taktill yo'llar, bu ularning sinfda xavfsiz harakatlanishlariga yordam beradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (*eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar*)ni doskaga yaqin, o'qituvchi hamda tengdoshlarini ko'rib turishi uchun qulay bo'lgan oyna tomondan hamda har qanday qatordagi birinchi va ikkinchi partada o'tirishini tavsiya qilish (*og'zaki nutq 2,4 m, shivirlash esa 0,5 - 1 m masofadan qabul qilinadi*);

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (*ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar*)ni sinfga osongina kirib chiqishi uchun o'rta qatordagi birinchi va ikkinchi partaga hamda ko'rish qobiliyati past o'quvchilarga tabiiy yoritish sharoiti ko'proq bo'lgan deraza tomondagi chekka stollardan joylar ajratilishi, shuningdek ko'zoynak bilan ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lgan o'quvchilar istagan joylariga o'tirishini tavsiya qilish;

Somatik kasalliklar (*psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar*)i mavjud bolalarni ko'pincha jismoniy va psixologik muammolarni bir vaqtda boshdan kechirishini inobatga olib sinf eshigiga yaqin qatordagi partaga hamda revmatizm kasalliklari bor, tez-tez angina va yuqori nafas yo'llarining o'tkir shamollashiga moyil o'quvchilarga derazadan uzoqroqqa o'tirish joylari ajratilishi;

Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (*alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish*)ni o'qituvchi hamda boshqa (sog'lom) bolalarni aniq ko'rib turishini inobatga olib oyna tomondagi qatorning old qismlaridagi partalarga joylashtirish;

Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (*bolalar serebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi - pakanalik*)ni maktabning birinchi qavatida joylashgan sinfda, mustaqil harakatlanishiga imkon berishni inobatga olib, o'rta qatordagi birinchi partaga joylashtirish (zarur holatlarda maxsus parta talab qilinadi) qolaversa, o'quvchilarning gavdalari buzilishini profilaktika qilish maqsadida, ularning o'sishiga mebel raqami mos kelishi, oxirgi qatorda o'tirganlar bir yilda 2 marta joylarini o'zgartirishlariga sharoit yaratish;

Aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalarni jismoniy qiyinchiliklarga duch kelishini, ammo intellektual jihatdan o'z tengdoshlari bilan bir xil ekanligini inobatga olib o'rta qatorga joylashtirish;

Aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (*o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji*)ni maxsus pedagogik, tibbiy va psixologik yondashuvlar talab qilinishini inobatga olib o'rta qatorga joylashtirish;

Intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni sinf eshigiga yaqin bo'lgan chetki qatorning birinchi va ikkinchi partalariga joylashtirish;

Xulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektorida buzilishi bo'lgan bolalarni eshikka yaqin bo'lgan qatorning devor tomonidan birinchi va ikkinchi partaga o'tirishini taklif qilish;

Intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (*agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq bir oyda bir martadan oshmagan vaqtda*) alohida e'tibor va yondashuv talab qilishini inobatga olib sinfdan hech kimga xalal bermasdan chiqib ketishga qulay bo'lgan eshikka yaqin o'ng tomondagi qatorlarga joylashtirish;

Diqqat yetishmasligi hamda giperaktiv bolalarda diqqatni jamlashda, topshiriqlarni yakunlashda yoki o'rnatilgan tartib qoidalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishini inobatga olib eshikka yaqin bo'lgan qatorga joylashtirish lozim.

Mazkur tavsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”** 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli hamda “Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida” nizomi hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining **“Maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini jihozlashda foydalaniladigan mebellarga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablarini (0057-23-son sanqvan) tasdiqlash to'g'risida”** 2023-yil 7-noyabrdagi 24-sonli qaroridan kelib chiqib tayyorlangan.

1-dars. Vatanim haqida nimalarni bilaman?

O'qituvchi o'quvchilar bilan 1-sinfda o'tilgan mustahkamlaydi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inobatga olib namuna sifatida o'zi biror o'quvchi bilan salomlashib o'zini tanishtirish, salomlashish madaniyatini ko'rsatib beradi.

Dastlab o'qituvchi o'quvchilarga darslik, shartli belgilar (har birni qog'ozga alohida qilib chiqarib, ma'nosi ochib beriladi) bilan tanishtiradi.

Ushbu darslik orqali:

“Turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, shaxsiy va bironlarning tuyg'ularini his qilish, O'zbekistonda yashovchi millat va elatlarning urf-odatlarini” haqida qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishish mumkinligi aytiladi.



salomlashish odobini

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda ta'lim jarayoni natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish, shaxsiy qiziqish hamda imkoniyatlarini inobatga olib, individual yondashuvni tashkil eta olishi zarur.

Berilgan ma'lumotlar quyidagi rasm asosida mustahkamlanadi.

Barcha bolalarni:

maktabda hamda sinfda o'zini qanday tutish qoidalari;
ismi aytilganda o'rnidan turib javob berish;
sinf doskasi oldiga chiqqanda qanday turish hamda o'z o'rniga kelib o'tirish ko'nikmalari;
darsliklarni, o'quv-qurollaridan samarali foydalanish va uni asrash;



ko'chadan uyga kirganda qo'llarni sovunlab yuvish;
kiyinish madaniyatga amal qilish zarurligi ta'kidlanadi.

O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning amaliy ko'nikmalarini oshirish maqsadida barcha yodda tutish lozim bo'lgan tartiblarni amaliy o'quvchilar bilan birgalikda bajarib ko'rsatishi, hatto kitob varaqlash tartibini ham amaliy bajarib ko'rsatishi talab qilinadi.

Mavzu qiziqarli bo'lishi uchun Madina va Akmal suhbatini tashkil qilinadi.

	Akmal va Madina suhbatida davomida maydonlarda, davlat tashkilotlarida bayroq ilinganligi, bayroq, gerb, madhiya davlatimiz ramzi ekanligi, sport musobaqalarida qaysi davlat sportchisi g'olib bo'lsa o'sha davlatning bayrog'i ko'tarilishi tushuntiriladi. O'quvchilardan maktabga kelish vaqtida qayerlarda bayroq ko'rganligi so'raladi, maktabdagi mavjud davlat ramzlari ko'rsatilib amaliy tushunchalar beriladi.	
---	---	---

O'quvchilarni valyuta ya'ni pul bilan tanishtirish maqsadida o'qituvchi darslikdagi rasimga o'quvchilarning diqqatini qaratadi. qog'oz pullar yoki tangalarda mashhur insonlar, me'yoriy obidalar, tarixiy binolar tasvirlanishi aytib o'tiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham aniq tushunarli bo'lishi uchun tabiiy qog'oz va tanga pullar tabiiysi ko'rsatib beriladi va har bir qismi tushuntiriladi.



Darslikda berilgan Amir misolida vatanimiz O'zbekistonga oid ma'lumotlarni bilishimiz zarurligi ta'kidlanadi. Har qanday holatda O'zbekistonda chet eldan kelgan mehmonlar, chet elga chiqqanda boshqa davlat fuqarolari tomonidan vatanimiz haqida qiziqtirgan savollarini berishi mumkinligi tushuntiriladi. Bu har bir o'quvchi g'urur tuyg'usini berishi alohida aytib o'tiladi.

O'quvchilarni O'zbekiston haqida fikrini bilish maqsadida "Siz Amirni o'rnida bo'lsangiz nimalarni aytib bergan bo'lar edingiz?" savoli beriladi.



Uch to'rt nafar o'quvchini javobidan keyin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan ham O'zbekiston haqida so'raladi. Javobi qarab ko'rgazmali qurollar orqali to'ldiriladi.

Barcha o'quvchilarga **"Vatanparvarlik"** ta'rifi mazmuni tushuntirilib, yod olish vazifasi beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga **"Vatanparvarlik"** tushunchasi rasm asosida yanada ochib beriladi.



O'quvchilar bilan birgalikda **"Do'pka voqeasi"** o'qib beriladi. Berilgan rasmlar asosida o'quvchilarga **Do'pka va Transformer Do'ppi** farqlab ko'rsatiladi. Hikoya orqali o'zbek milliy liboslari, inson hayotda o'z tarixini (ildizini) bilishi, faxr tuyg'usi bilan yashashi, "Noyob" so'zining ma'nosi, har bir narsaning ham



ajoyib xususiyatlari borligi tushuntiriladi.

Voqeani mustahkamlash maqsadida:

Do'pkaning ko'rinishi qanday ekanligi;

Do'pka nega xafa bo'lganligi;

nima uchun har bir inson o'z yurtini, tarixini, nimasi bilan mashhurligini bilishi kerakligi yuzasidan savollar beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun mazkur kitob muallifi Saida Rashidovaning fikrlari o'qib beriladi.



"Men Vatanni sevaman!" metodikasi

Mazkur darsda **"Men Vatanni sevaman!"** metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan maqsad bolalarga o'z Vatani tanish, faxrlanish, ramzlarini eslab qolish va yurtga nisbatan mehr hissini uyg'otishdir.

O'qituvchi oddiy so'zlarda **"Vatan – bu biz tug'ilgan, yashayotgan joy, O'zbekiston, bu yerda bizning oilamiz, do'stlarimiz, maktabimiz bor, shuning uchun biz Vatanimizni yaxshi ko'ramiz"** deb tushuntiradi:

Bolalarga davlat bayrog'i, gerb, madhiya rasmi yoki audio yozuvi ko'rsatiladi (eshittiriladi) va:

bu nima? → Bayroq;

qayerda ko'ramiz? → Maktabda, binoda.

Shu savol-javoblar bolalarning yodida qolishi uchun **“Men O‘zbekiston fuqarosiman”** (5 daqiqa) rolli o‘yini o‘tkaziladi.

Har bir bola o‘zini tanishtiradi:

men ... ismli bolaman;

men O‘zbekiston fuqarosiman;

men Vatanimni yaxshi ko‘raman.

Guruh bo‘lib: bayroq oldida turib, **“O‘zbekiston – mening Vatanim!”** deb aytishadi.

Bolalarni rasm chizish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagilardan birini chizish tavsiya qilinadi: bayroq, O‘zbekiston xaritasi, tabiat, maktab binosi. Rasm tagiga o‘qituvchi yordamida oddiy so‘z bilan **“Bu mening Vatanim!”** deb yoziladi.



Uyga vazifa beriladi. Har bir o‘quvchi o‘zi tug‘ilgan joy va uning tarixi haqida qisqacha hikoya tuzib kelishi lozim bo‘ladi.

2-dars. O'zbekiston xalqi-Vatanimiz faxri

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda o'zi tug'ilgan joy va uning tarixi haqida tuzib kelgan hikoyasi eshitiladi va guruh bilan birgalikda olqishlanadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan o'qiyotganda barmog'ingizni matn ostida olib boring, kerakli vaqtda sahifalarni almashtirishni so'rang, ertak qahramonlarini bering, shunda u voqealar rivojida uni sahnalashtirishi mumkin bo'ladi.

Dars tushunarli va qiziqarli bo'lish maqsadida Akmal va Madina suhbatidan foydalaniladi.

	Akmal xonadagi gulga qarab turganligi va unga berilgan mashhur o'zbekistonliklar haqida ma'lumot topib kelish kerakligi yuzasidan berilgan topshiriqni aytadi. Akmal bir biolog bilan gaplashganligini, u olim kashf qilgan mikroblar o'simliklarni tez o'sishiga yordam berishini aytadi. Berilgan rasm asosida suhbat mazmuni mustahkamlanadi.	
---	---	---




Darslikning 8-9-sahifalarida berilgan suhbat davomida barcha bolalar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham "Texnologiyalar, sog'lom bo'lish, o'zbek tilidan boshqa qo'shimcha tillarni ham bilish, iste'dod, o'z kasbini sevish, global muammolar" haqida tushuntiriladi. Barcha o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun suhbatni rolga kirib o'qish, tarqatma materiallar orqali ko'rsatib tushuntirish maqsadga muvofiq.

Dilfuza opa bilan suhbat yanada tushunarli bo'lishi Akmalni biologiya faniga qiziqib qolganligi, suhbatdagi eng yoqqan savol qaysiligi, mashhur olim bo'lish uchun nimalar qilish kerakligi yuzasidan suhbatlashiladi.



Darslikning 10-11-sahifasida berilgan ma'lumotlar o'qib beriladi, mazmuni tushuntiriladi. Yanada tushunarli bo'lishi uchun QK dagi video hamda rasmlardan ham foydalaniladi. Qiziqarli qilish maqsadida berilgan ma'lumotlar yuzasidan savollar tuziladi. Tuzilgan savollarni ikki guruh a'zolari navbat bilan bir biriga beradi va javoblarini tinglaydi.



Ushbu mavzu orqali barcha o'quvchilar bilan birgalikda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda faxr va g'urur tuyg'ulari, vatanga muhabbat hissi shakllantiriladi.

“Xalqim – faxrim!” metodikasi

“O'zbekiston xalqi-Vatanimiz faxri” dars mashg'uloti alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun **“Xalqim – faxrim!”** nomli metodikadan foydalaniladi. Ko'zlangan maqsad bolalarga O'zbekiston xalqi ahil va mehnatkash ekanini tushuntirish, turli millat vakillarini hurmat qilish, mehr-oqibat ruhini shakllantirishdir.

O'qituvchi oddiy so'zlar bilan:

xalq – bu O'zbekistonni tashkil qilgan barcha odamlar;

O'zbekiston xalqining hammasi do'st: o'zbek, tojik, rus, qozoq, qoraqalpoq va boshqalar;

hamma birgalikda yashaydi, ishlaydi, bayram nishonlaydi deb tushuntiradi.

O'qituvchi milliy kiyimdagi bolalar rasmlarini ko'rsatadi. **“Bu tojik farzandi”**, **“Bu o'zbek farzandi”**, **“Bu rus farzandi”** va hokazolar. Har bir bola rasmni tanlab: **“Bu do'st”**, **“Bu men kabi bola”** deb aytadi.

Shundan keyin **“Kim bo‘lishni xohlaysan?”** (5 daqiqa) o‘yini o‘tkaziladi. Har bir bola turli millatlar vakilini tasvirlaydi. **“Men qoraqalpoqlik do‘stman, men tojik o‘g‘loniman”** kabi.

Bolalarda yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish hamda metodikani yakunlash maqsadida **“Do‘stlik daraxti”** (5 daqiqa) o‘yini o‘tkaziladi. Bolalar turli rangli barglarga o‘z ismini yozadi. Daraxt shakliga yopishtiriladi. Daraxt ostiga esa **“O‘zbekiston xalqi – do‘stlik daraxti”** deb yozib qo‘yiladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar otasonasi bilan birgalikda **“Kelajakda vatanim uchun qanday hissa qo‘shaman?”** savoliga javob topib kelinadi.

3-dars. Men yashaydigan olam

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolgga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **“Kelajakda vatanim uchun qanday hissa qo'shaman?”** savoliga javob tinglanadi. Rag'batlantiriladi.

O'quvchilar bilan suhbat tashkil qilinadi. Darslikning 12-sahifasida berilgan matn o'qiladi. O'qituvchi o'quvchilarga bizni atrofimizda doim qarindosh-urug'lar, qo'shnilar, do'stlar, sinfdoshlar yashashini aytadi. Ular orasida o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, tatar, rus, turkman, tojik, qirg'iz va boshqa millat vakillari yashashi aytiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar akademik tushunchalar kech o'rganishi, diqqatini jalb qilishi qiyin va tartibsiz bo'lganligi uchun davomiy kuzatish, rag'batlantirish zarurligi, shaxsiy manfaatlarni tushunmaydi, tushunsa ham qisqa yoki vaqtinchalik deb qarashini inobatga olish lozim.




bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun barcha millatlar nomini o'quvchilarga biriktiradi va har bir o'quvchi o'rnidan turib unga qaysi millat biriktirilganligini aytadi. Shu orqali o'quvchilarni yodida qoladi.

Aytib o'tilgan millatlardan tashqari uzoq Angliya, Fransiya, Germaniya, Xitoydan kelganlar ham bo'lishi mumkinligini xarita orqali ko'rsatadi.

Matn savollar asosida mustahkamlanadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda boshqa viloyat yoki chet elda yashaydigan do'stlariga xat yoziladi.

Darslikning 13-sahifasidagi matn o'qiladi. Matn asosida mehmonga borish odobi, jamoat joylarida olib saqlash, borgan davlat urf-odatlarini, tartib qoidalari bilan tanishish, o'sha davlat salomlashishi, xayrlashishi, rahmat aytishini o'rganib olish zarurligi tushuntiriladi.



Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'tilgan mavzuni qay darajada tushunganligini aniqlash maqsadida kichik suhbatlar tashkil qilinadi. Suhbatda siz biror mamlakatga sayohatga bormoqchisiz, qanday qilib u mamlakat haqida ma'lumot olasiz, sayohatga o'zingiz bilan nimalar olasiz kabi mavzular yuzasidan savol-javoblar olib boriladi.

Darslikning 14-15-sahifalaridagi xarita katta qilib sinf doskasiga ilinadi. Berilgan QKlar orqali har bir davlat haqida video ko'riladi. Davlatlar rasmda berilgan mashhur obida va narsalari bilan bog'lab tushuntiriladi. O'zbekiston juda ham ko'plab davlatlar bilan ahil ekanligini samolyotimizni ko'plab davlatlar orasida uchib yurayotganligi ko'rsatiladi.

O'quvchilarni qay darajada tushunganligi savollar orqali mustahkamlanadi va yana qo'shimchalar beriladi. Sayohat qilishning foydali jihatlari aytilib beriladi.

“Mening dunyoim – mening olamim” metodikasi

Mazkur dars mashg'ulotida **“Mening dunyoim – mening olamim”** mavzusida metodika tashkil qilinadi. Metodika natijasida bolalarga o'z yashash joyi (*Uy, ko'cha, bog', maktab, tabiat*) haqida tushuncha berish, bu muhitga mehr uyg'otish, atrofdagi olamni qadrlash hissini shakllantirishdir.

O'qituvchi suhbat asosida oddiy qilib:

olam – bu biz yashaydigan joy;

bu – uyimiz, maktabimiz, ko'chamiz, bog', daraxtlar, hayvonlar, do'stlar – hammasi olamimiz;

har bir bola o'z olamini sevadi va asraydi deb aytadi.

“Mening olamimda nimalar bor?” (5 daqiqa) mavzusida: Uy, daraxt, qush, maktab, hayvon, oila rasmi yoki kartochkalari ko'rsatiladi.

Har bir bola kartochkani tanlaydi va gapiradi. **“Mening olamimda ... bor”**.

O'qituvchi aytadi: **“Hammamiz olamda sayr qilamiz”**. Bolalar yuradi, atrofnı ko'zdan kechiradi, to'xtab aytadi: **“Men qushni ko'rdim”**, **“Men gullarni sevardim”** va hokazo.

Har bir bola o'z olami haqida rasm chizadi (uy, maktab, do'st, gullar). Rasm tagiga oddiy jumla bilan **“Bu mening olamim”** deb yoziladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar otasini bilan birgalikda chet eldagi o'rtog'iga xat yozib, O'zbekiston haqida hikoya yozib kelinadi.

4-6-dars. Sayyoramizga nimalar xavf solmoqda?


O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda bajarib kelgan chet eldagi o'rtog'iga O'zbekiston haqida yozib kelgan hikoyasi tinglanadi. Rag'batlantiriladi.

Darslikning 16-sahifasidagi QK o'quvchilarga qo'yib beriladi va uyda ham ota-onasi bilan birgalikda tomosha qilish tavsiya qilinadi.

O'qituvchi Madina Mo'minovanning **"Plastikakl kim?"** kitobidan parcha o'tib beriladi. Parcha asosida

o'quvchilarga dengiz hayvonlari, o'simliklariga plastik chiqindilar hamda dengizdagi konlarning **qanchalik** xavf solayotganligi tushuntiriladi.



Birgina misolda tabiatni dengiz asrash tushunchasi shakllantiriladi.



Berilgan rasm matn undagi rasmlar hamda savollar asosida tabiatni asrash uchun barcha birdek mas'ul ekanligi aytiladi. Odamlarni tabiatni asrashdagi o'rni qanday ekanligi, dengiz hayvonlariga odamlar qanday yordam berish mumkinligi so'raladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar berilgan ma'lumotlarni qiziqish bilan eshitadi lekin uzoq vaqt eslab qola olmasligini, qo'lga ushlanadigan qattiq, hajmi ko'proq narsalarni oson eslab qola olishini, shuni uchun bunday ma'lumotlarni yaxshi tushunishini inobatga olib yondashish talab qilinadi.

Darsni qiziqarli va o'quvchilar yodida qolishi uchun guruhlarda amaliy ishlanadi. Buning uchun rasmlardagi Donik va uning atrofidagi dengiz hayvonlari nomi aytib o'tiladi. Har bir dengiz jonivori nomidan insonlarga xat yoziladi. O'qituvchi eng ta'sirli bo'lgan dengiz jonivorining gaplarini muhokama qiladi va rag'batlantiriladi.



Uyga vazifa sifatida beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda Donik degan delfincha hikoyasi asosida rasmlar chizib kelinadi.

O'qituvchi barcha o'quvchilarning diqqatini tabiatga qaratadi va insoniyatning hayoti Yer sayyorasining salomatligiga bog'liqligini tushuntiradi. Agar insoniyat ya'ni biz tabiatga ziyon yetkazsak, o'zimizni sog'ligimiz uchun zarar yetkazgan bo'lamiz. Ya'ni har bir tabiiy resurslardan oqilona foydalanib, tabiatga zarar yetkazmasligimiz lozimligi tushuntiriladi.



Barcha o'quvchilarning diqqat markazi rasmga qaratilib, rasm asosida savollar tuziladi. Tuzilgan savollarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar qolgan boshqa o'quvchilarga o'qiydi. Berilgan javoblar muhokama qilinadi.

Qaysi savol eng qiziqarli ekanligi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan so'raladi.

Darslikning 20-sahifasidagi hikoya o'qib beriladi va rasmga bog'lab tushuntiriladi.

Har bir kun davomida tibbiy boyliklardan foydalanishimiz va buni orqasidan tabiatga zarar keltirayotganimizni sezmasligimiz, zavod-fabrikalardan suvga ko'plab chiqindi tashlash natijasida baliqlar, suv hayvonlarining qirilib ketishi, ozon qatlamini yemirilishi, yer osti suvlarining

ifloslanishi, ko'plab qushlar, hayvonlarning yashash joyidan ajralib qolishi tushuntiriladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun rasm asosida insonning qaysi tabiatga ta'siri natijasida qanday salbiy oqibatlarga olib kelayotganligi taqqoslab beriladi.

O'qituvchi bilan birgalikda asosiy xavf-xatarlar va ularning kelib chiqish sabablari yoziladi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham inobatga olinib rasmlar asosida ko'rsatiladi.

Darslikning 21-sahifasida berilgan gaplar to'ldiriladi. Dastlab sog'lom o'quvchilar ikki ustunda berilgan jummalarni to'g'rilab gaplarni davom ettiradi va mazmunini o'qituvchi tushuntirib beradi. Undan keyin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga gap to'liq o'qib beriladi va bola gaplarni o'zi topib davom ettiradi.



O'qituvchi ishtirokida berilgan fikrlar muhokama qilinadi va har bir gapning mazmuni ochib beriladi.

Barcha fikrlarni mazmuni bilan tanishtirilgandan keyin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan to'g'ri va noto'g'ri fikrlarni ajratish so'raladi. Undan tashqari bolalar har bir fikr mazmuni aytilganda shu mazmunga mos gapni ko'rsatib berishi so'raladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar otasi bilan birgalikda "Tabiatni asrash" mavzusida klaster tuziladi.

Uyga berilgan "Tabiatni asrash" mavzusida klasteri ustida ishlanadi. Bolalar rag'batlantiriladi.

Darslikning 22-sahifasini barcha o'quvchilarga tushuntirish uchun Madina hamda Akmal suhbatidan foydalaniladi.


O'qituvchi global isish natijasida muzliklarning erib ketish holatlari kuzatilayotganligi aytadi.

Madina bu nima uchun bo'layotganligini so'raydi.


Bunga insonning hayot faoliyati sabab bo'layotganligi, elektr va avtomobil ishlab chiqarish natijasida havo ifloslanayotganligi, yoqilg'i va qurilish uchun o'rmonlar kesilayotganligini aytadi.

Akmal global isish qanday oqibatlarga olib kelishini so'raydi.

O'qituvchi unga muzliklarni erishi natijasida hayvonlarning yashash joylari yo'qolib borayotganligi, suv toshqinlari, qurg'oqchiliklar, ichimlik suvi va oziq-ovqat miqdori kamayib ketayotganligini aytib beradi.



O'qituvchi darslikning 23-sahifasida berilgan rasmlar asosida iqlimning global isishini to'xtashish uchun nimalar qilish kerakligi tushuntiriladi.



Darslikda berilgan global isishni oldini oladigan ma'lumotlar har bir o'quvchiga beriladi va barcha o'rnidan turib aytadi. Undan keyin alohida

ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar har bir o'quvchiga qarab kim qaysi ma'lumotni aytganligini takrorlab chiqadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga amaliy ko'nikma hosil qilish maqsadida maktabdagi biror suv jo'mragi ozgina ochib qo'yiladi va ma'lum vaqt ichida qancha suv isrof bo'lganligi ko'rsatiladi.

“Yerimiz – bizning uydır” metodikasi

Dars davomida **“Yerimiz – bizning uydır”** mavzusidagi metodika o'tkaziladi. Ko'zlangan maqsad bolalarga Yer sayyorasining muhofazasi haqida oddiy tushunchalar berish, atrof-muhitga nisbatan mehr va javobgarlik tuyg'usini shakllantirishdir.

O'qituvchi **“Yer sayyorasi nima?”** (3 daqiqa) mavzusida suhbat tashkil qiladi. Yer – bizning uydır, unda hamma yashaydi: odamlar, hayvonlar, o'simliklar. Agar Yer ifloslansa yoki zarar ko'rsa, hammaga yomon bo'ladi.

Berilgan ma'lumotlar yanda tushunarli bo'lishi uchun **“Yerga nima zarar yetkazadi?”** (5 daqiqa) mavzusida savol-javob tashkil qilinadi. Rasmlar ko'rsatiladi: **“Axlat tashlanayotgan ko'cha”**, **“Daraxt kesilayotgan o'rmon”**, **“Daryoga yog' to'kilgan rasm”**. Bolalar **“Bu to'g'rimi?”** deb so'raladi. **“Yo'q, bu yomon”**, **“Yer yig'laydi”** deb javob berishadi.

Shuningdek, **“Yerga yordam beramiz”** (5 daqiqa) mavzusida sahna ko'rinishi o'tkaziladi. Bolalar rollar o'ynaydi. Biri daraxt ekadi, boshqasi axlatni yig'adi, kimdir suvga shisha tashlamaydi. Rol yakunida har bir bola aytadi: **“Men Yerga yordam beraman!”**.

Bolalar o'ziga yoqqan toza tabiat manzarasini chizadi: Yashil dala, tiniq suv, qushlar. Har bir rasm ostiga **“Men shunday zaminda yashashni istayman”** deb yoziladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **“Iqlimning global isishini kamaytirish uchun biz nima qila olamiz”** mavzusida fikrlar topib kelinadi.

7-dars. Biz qanday dunyoda yashashni istaymiz?

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **“Iqlimning global isishini kamaytirish uchun biz nima qila olamiz”** mavzusida o'rganib kelgan fikrlari tinglanadi, kamchiliklari ustida ishlanadi. Rag'batlantiriladi.

Darslikning 16-sahifasidagi QK ostida berilgan video lavha namoyish qilinadi.

Ota-onasi bilan birgalikda uyda ham tomosha qilish tavsiya qilinadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni o'rganish tezligi juda ham sekin, eshitgan narsalarini tez unutadi, xotiralari juda ham zaif, so'z boyligi kam, boshqa shaxslar bilan suhbat jarayoni ravon emas, o'qigan jumlasini aytib berishda qiyinchilikka uchraydi, tortadi, hissiyoti va fikrlarini ifoda qila olmasligini inobatga olib yondashish lozim.



Berilgan rasm asosida o'quvchilarning tabiatga qo'shayotgan hissasi haqida suhbat tashkil qilinadi. Barcha o'quvchilar biz hozir tabiatga qanday hissa qo'shsak kelajakda avlodlarimiz bizdanda yaxshi yashashi tushuntiriladi.

O'quvchilarning fikrlarini aniqlash maqsadida “Kelajakka tushib qolsangiz tengdoshlaringizdan nimalarni so'ragan bo'lar edingiz, o'z hayotingiz haqida nimalarni gapirib berar edingiz” deb so'raladi.

Barcha o'quvchilarning fikrlari eshitilgandan keyin har bir o'quvchi kelajakka maktub yozadi. Ushbu maktab yigirma yildan keyin uchinchi sinfda o'qiydigan o'quvchiga yo'llanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar yozishga qiynalsa og'zaki aytib berish so'raladi va birgalikda yoziladi. Rasm holatida ifodalamoqchi bo'lsa unga ham imkoniyat beriladi.



Barcha o'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida **“Biz qanday dunyoda yashashni istaymiz?”** mavzusida gazeta tayyorlanadi.

Dastlab bir nechta faol o'quvchilarning bajargan ishlari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladi, undan keyin bola o'zi mustaqil qiziqarli g'oya va rasmlar izlaydi.

“Orzudagi dunyo” metodikasi

Dars davomida **“Orzudagi dunyo”** metodikasidan foydalaniladi. Bolalarda orzularidagi dunyo haqida tasavvurni shakllantirish, tinchlik, tozalik, do'stlik, mehr va tabiatga muhabbat kabi qadriyatlarni anglashiga yordam berish maqsad qilib olinadi.

O'qituvchi **“Siz qanday dunyoda yashashni xohlaysiz?”**, **“U yerda nima bo'ladi, kimlar yashaydi?”** deb so'raydi.

Bolalar **“Toza”, “Tinch”, “Hamma do'st”, “Hayvonlarga zarar yetkazilmaydi”** deb javob beradi.

Bolalarga ikki rasm ko'rsatiladi.

☒ **Toza, quvonchli, yashil dunyo;**

☒ **Iflos, urush, g'amgin odamlar.**

Bolalar tanlaydi:

men bunday dunyoda yashashni istamayman;
men mana bu dunyoni tanlayman.

Shuningdek, bolalar o'zlari yashashni istagan dunyoni chizishadi: tinch, qushlar, quyosh, do'stlar, daraxtlar. Har bir bola rasmiga **“Bu mening orzudagi dunyoim”** deb qisqa jumla yozadi yoki aytadi.

Guruh bo'lib **“Yaxshi dunyo nima bilan quriladi?”** (5 daqiqa) mavzusi ustida ishlanadi.

Mehr, do'stlik, tozalik, tabiat, tinchlik. Har bir so'zga bog'liq kichik harakat ko'rsatilgan (*Quchoqlashish, gulni sug'orish, axlatni olib tashlash*) so'zlar tanlanadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **tabiatni asrash** mavzusida rasm chizib kelinadi.

8-9-dars. Tenglik nima?

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **tabiatni asrash** yuzasidan chizib kelgan rasmi muhokama qilinadi. Rag'batlantiriladi.

Ushbu mavzu alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tengdoshlari orqali tushuntiriladi. Barcha tengdoshlari har xil ekanligi ularning rangi jinsi, tug'ilgan vaqti har xil bo'lishi aytiladi. Barcha o'quvchilarni esa bitta narsa **Inson** birlashtirib turilishi

birgalikda aytiladi.



Barchani esa hayot kechirishga – oilali bo'lish, ilm olish, tibbiy yordam olish, o'zi xohlagan kasbini tanlash kabi inson huquqlari deb atalishi yod oldiriladi.

Asosiy haq-huquqlarning ta'minlanishi inson qadrigimmatining shartidir.

Barcha bolalar qatorida tenglik, majburiyatlar, bir-biriga yordam berish tushunchalari tushuntiriladi.

Inson ulg'aygan sayin uning oiladagi huquq va majburiyatlari ham o'zgarib borishi bir necha hayotiy misollar bilan ochib beriladi. Bunda bugungi kunda qilingan ishlardan ertaga yanada murakkab vazifalar kutayotganligi, bugun qilinmasa ertaga yanada murakkablashib ketishi aytiladi.

Undan tashqari "gender tenglik" tushunchasi sinfdagi bir nafar o'g'il va qiz bola yonma-yon qilib qo'yib tushuntiriladi.

Darslikning 27-sahifasidagi QK hamda rasm asosida berilgan asosida savollarga javob topiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun sinfda o'quvchilar bilan birgalikda sahna ko'rinishlari orqali ko'rsatib beriladi.



Darsdan keyin dam olish	Tibbiy yordam olish	O'ziga yoqqan mashg'ulotni tanlash (to'garak yoki seksiya)
Maktab oshxonasida ovqatlanish	Maktabda o'qish	O'z fikrini bildirish
Yordam so'rash	Darsda topshiriqlarni bajarish	Odob-axloq qoidalariga rioya qilish
Maktab mulkini asrash	Atrofdagilarni hurmat qilish	Kun tartibiga amal qilish

Har bir berilgan ma'lumot alohida alohida qilib chiqariladi va bittadan mazmuni ustida ishlanadi.

O'qituvchi istalgan bittasini mazmunini aytib bersa alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar topib ko'rsatib berishi lozim.

Undan keyin barcha o'quvchilar mustahkamlash uchun o'zlarining huquq va majburiyatlarini muhokama qilishadi.



Barcha o'quvchilarga birovning haq-huquqlarini hurmat qilish zarurligi aytiladi.

Sport bilan faqat o'g'il bolalar shug'ullanishi mumkin.	Olimpiadada o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham qatnashishi mumkin.
Gimnastika bilan faqat qiz bolalar shug'ullanishi mumkin.	Faqat o'g'il bolalar o'z oldiga maqsad qo'yib, keyin unga erishadi.
Bolalar o'ynaydigan maydonchaga o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham borishi mumkin.	Orzu faqat qiz bolalarda bo'ladi.
O'g'il bolalar kelajakda ishlab, pul topishi kerak.	Uy ishlarini faqat qizlar qilishi kerak.
O'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham ilm olishi kerak.	

Mazkur berilgan ma'lumotlar asosida gender tenglik, inson huquqlari haqidagi to'g'ri va noto'g'ri ma'lumotlar ajratib tushuntiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham har bir ma'lumot o'qib berilganda to'g'rilarini bir tomonga noto'g'rilarini bir tomonga ajratib ko'rsatib bera olishi lozim.

“Hamma barobar – hamma muhim” metodikasi

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar **“Hamma barobar – hamma muhim”**  uchun metodikasidan foydalaniladi. Ko’zlangan maqsad bolalarda insonlar orasidagi tenglik tushunchasini shakllantirish, har kimning o’ziga xosligi meni bor, ammo barchaning huquqlari, qadri va hurmati teng ekanligini tushuntirishdir.

O’qituvchi oddiy so’zlar suhbat asosida:

“Tenglik” – bu hammaga bir xil munosabatda bo’lish;

kimdir o’z oyog’i bilan yuradi, kimdir aravachada – lekin ikkalasi ham o’rganish, o’ynash, do’st orttirish huquqiga ega;

yoshing, ko’rinishing, qobiliyating qanday bo’lishidan qat’iy nazar, sen ham muhimi insonsan deb tushuntiradi.

Har xil rangdagi bolalar (oq, qora, nogiron, zaif ko’ruvchi, koxlear implantli, aravachadagi va boshqalar) rasmi ko’rsatiladi va:

“Kim muhim?”;

Bolalar: **“Hammamiz!”**;

“Kim o’rganishi mumkin?” → **“Hammamiz!”**;

“Kimga mehr kerak?” → **“Hammamizga!”**.

Shundan keyin bolalarga bir xil topshiriq beriladi (*Masalan: qog’ozdan yurak kesish, rasm bo’yash, oddiy harakat*). Har kim o’z uslubida bajaradi.

Har kim o’zicha bajarsada, lekin hammasi zo’r! – deb umumlashtiriladi.

Har bir bola yurak shaklida qog’ozga rasm chizadi yoki ism yozadi. Devorga yopishtiriladi: **“Bu sinfda hammamiz tengmiz!”**.

Bu metodika orqali bolalar o’zini hurmat qilishni, boshqalarni qadrlashni va jamiyatda har kimning o’rni borligini anglay boshlaydi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar otasini bilan birgalikda **“Tenglik”** mavzusida klaster tuzib kelinadi.

10-11-dars. Kamsitish nima?

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan **"Tenglik"** mavzusida klasteri muhokama qilinadi va rag'batlantiriladi.

Darslikning 30-sahifasida berilgan rasm asosida nima tasvirlanganligi, hayotda ham bunaqa holatlar ko'rganligi, nima uchun bunday holatlar sodir bo'layotganligi tushuntiriladi.

Barcha o'quvchilarga sinfimizda birgalikda ta'lim-tarbiya olayotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitmaslik, do'stlik aloqalarini doim mustahkam ushlab turish ta'kidlanadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'zlaridan kichkina bolalar bilan o'ynashni afzal ko'rishini, tadbirlardan o'zini tortishini, mashg'ulot jarayonida tengdoshlari bilan guruhga qo'shilib ketishi qiyinligini, o'yin faoliyatida liderlik qiziqishidan ko'ra guruhdagi boshqalarga bo'ysunishga moyilligini, o'yindagi hamda jamiyat qoidalarga tushunishi qiyinligini inobatga olish zarur.



O'quvchilarga kamsitish, o'zimiznikilar, begonalar kabi so'zlarning ma'nosi berilgan matn asosida aytib o'tiladi.



Kamsitish huquqlarni poymol qilish, insonlarning ma'lum bir toifasiga nisbatan ko'r-ko'rona yomon munosabatda bo'lishdir.

Darslikning 31-sahifasida berilgan kamsitishning asosiy belgilari yod oldiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham kamsitishning asosiy belgilari

mazmuni aytilsa to'g'ri ko'rsatib berishi lozim.



Darslikda berilgan gaplardan qaysi birlarida kamsitish belgilari bor?

Qaysi gapda bolalar o'rtasida tortishuv belgilari borligi aniqlanadi.
Berilgan gapning qaysi birida kamsitish belgilari bo'lsa o'sha holatni qilmaslik aytiladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushuntirilgan ma'lumotlar rasmlar orqali mustahkamlanadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar otasini bilan birgalikda qanday xislatlar insonga kamsitish belgilarini sezishga va unga qarshi turishga yordam berishini yozib keladi.

Ota-onasi bilan birgalikda qanday xislatlar insonga kamsitish belgilarini sezishga va unga qarshi turishga yordam berishi yuzasidan yozib kelgan ma'lumotlar tekshiriladi. Rag'batlantiriladi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan darslikning 32-33-sahifasida berilgan rasmlar va gaplarni bilan ishlaydi. Rasmni ko'rib gaplarni o'qib kamsitish belgilari aniqlanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham inobatga olinib rolga kirib o'qib tushuntirish tavsiya qilinadi.



Ushbu rasmdagi holat noto'g'ri ekanligi, sport turlari barcha uchun ekanligi aytiladi.



Bu rasmda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga shaxmatdan boshqa sport turlari ham mavjudligi tushuntiriladi. **Parij-2024 XVII yozgi Paralimpiyada o'yinlarida** ishtirok etib g'olib bo'lgan sportchilar misol qilib keltiriladi.



Bunda jamoat joylarida o'zidan kattaga joy berish zarur.



O'quvchilar doim bir-biri bilan do'st bo'lishi, birgalikda o'ynashi, kitob o'qishi ta'kidlanadi.



Bu rasm asosida hech qachon bir-birini masxara qilmaslik, bu yomon odat ekanligi aytiladi.

Doim birgalikda harakat qilish do'st bo'lish yaxshi odat ekanligi tushuntiriladi.

“Kamsitish – bu yomon munosabat” metodikasi

Dars yanada qiziqarli o'tishi uchun **“Kamsitish – bu yomon munosabat”** mavzusida metodika o'tkaziladi. Ko'zlangan maqsad qilib bolalarga kamsitish nima ekanligini sodda tilda tushuntirish, uning noto'g'ri ekanligini anglatish, hurmat va do'stlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirishdir.

O'qituvchi:

Kamsitish – bu boshqalarni masxara qilish, undan yuz o'girish, uni o'yinlarga qo'shmaslik, gapini eshitmaslik;

kimnidir kiyinishi, yurishi yoki ko'rinishi boshqacha bo'lsa uni ustidan kulish kabilar ekanligi tushuntiriladi.

Bolalarga ikki xil rasm ko'rsatiladi:

☒ Do'stlar bir-biriga yordam bermoqda;

☒ Bola nogironlik aravachasida turibdi, boshqalar undan uzoqlashmoqda. Qaysi rasmda yaxshi munosabat bor, qaysi rasmda esa kamsitish bor?

Yanada tushunarli bo'lishi uchun **“Yaxshi va yomon munosabat”** (5 daqiqa) rolli o'yini o'ynaladi.

Bolalar ikki holatni o'ynaydi:

kimdir o'yinga qo'shmaydi;

kimnidir mehr bilan chaqiradi va yordam beradi.

Keyin birga muhokama qilinadi: **“Qaysi holatda o'zingizni yaxshi his qildingiz?”**.

Undan keyin bolalar yurak shaklidagi qog'ozga quyidagini yozishadi yoki og'zaki aytishadi:

men hech kimni kamsitmayman;

men do'stlaringa hurmat bilan qarayman.

“Kamsitish nima?” metodikasi

Darsni kichik savol bilan boshlash mumkin: **“Siz hech qachon kimnidir tashlab ketilganini ko'rganmisiz? yoki o'zingizni begona his qilganmisiz?”**. O'quvchilar o'z boshidan o'tgan voqealarni aytishadi. Bu orqali metodika mavzusi - kamsitish haqida suhbatga yo'l ochiladi.

Shundan so'ngra, o'qituvchi bolalarga qisqa, tushunarli hikoya aytib beradi. Masalan, sinfdagi bir bola doimo o'yinlarga chaqirilmaydi, chunki u sekin yuguradi. O'quvchilar bu holat haqida fikr bildiradi: **“Nima noto'g'ri?”**, **“U bolaning o'rnida bo'lsangiz nima qilardingiz?”**. Keyin o'quvchilar bilan kichik faoliyat o'tkaziladi: ularga turli suratlar ko'rsatiladi (*Masalan, nogironlik aravachasidagi bola, boshqacha kiyingan bola, boshqa millat vakili va hokazo*) va **“Bu bolalar siz bilan birga o'ynasa bo'ladimi?”** degan savol beriladi. O'quvchilar fikr bildiradi, shundan keyin o'qituvchi kamsitish - bu insonlarni tashqi ko'rinishi, millati, jismoniy imkoniyati yoki boshqa farqlari sababli yomon munosabatda bo'lish ekanini tushuntiradi.

Darsda **“Har kim o‘ziga xos”** nomli kichik topshiriq ham beriladi. Har bir bola o‘zining biror yaxshi jihatini aytadi va bir nafar sinfdoshining ijobiy tomonini aytib beradi. Bu bolalar o‘rtasida hurmat va qabul qilish muhitini yaratadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ham uyda ota-onasi bilan birgalikda tengdoshlari orasida, sinfda, maktabda, uyda kamsitishlar bo‘lmasligi uchun nima qilish kerakligi, qanday qilib hissa qo‘shish uchun takliflar o‘ylab kelinadi.

12-13-dars. Sinfdagi muhit

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni eshitishida muammolar bo'lsa nutqni o'zlashtirish, tildan foydalanish va eshitish sezgirligini qisman yo'qotish tufayli muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi, bizning nutqimizdan aniq tovushlar bilan farq qilishi, muloqot davomida tovushlar sakrashi, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishi, so'ragan savolga javob berishi uchun ko'proq imo-ishoradan foydalanishini, aynan kimning ovozi ekanligini ajratishi qiyin kechishini inobatga olish zarur.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan tengdoshlari orasida, sinfda, maktabda, uyda kamsitishlar bo'lmasligi uchun nima qilish kerakligi, qanday qilib hissa qo'shish uchun tayyorlab kelgan takliflari muhokama qilinadi va rag'batlantiriladi.

O'qituvchi yordamida o'quvchilar darslikning 34-sahifasidagi rasmlarni diqqat bilan kuzatib vaziyatlarni o'rganishadi.

1-vaziyatda barcha o'quvchilar ahil bo'lib "qalpoq" degan o'yinni o'ynayotganligi gavdalangan.

2-vaziyatda bu safar bolalar qalpoq egasini o'yinga qo'shmasdan uni qalpog'ini otib o'ynashgani, masxara qilishgani, sovqotsa ham berishmaganligi, o'yin oxirida shapkani qo'lga bermasdan yerga otib ketganligini tushuntiradi.

O'quvchilar vaziyatlarni qanday tushunganligini berilgan savollarga javoblari asosida bilib olinadi. Fikrlari tinglanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar rasmga qarab bolalarning kayfiyati qandayligini, ikkinchi rasmda bolalar nima qilayotganligini aytib bera olishi lozim.

Undan keyin barcha o'quvchilar bu vaziyatlardagi farqlarni ochib berishadi.

Barcha o'quvchilarga har qanday vaziyatda ham ahil bo'lish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam qo'lini cho'zish, kamsitmaslik ta'kidlanadi.



O'qituvchi kimnidir doim xafa qilish, haqoratlash, biror narsani olib, yashirib qo'yish, zarar yetkazish, turtkilash, xo'rlash, qo'rqitish ingliz tilida "**bullying**" deb atalishini

tushuntiradi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga rasm asosida ko'rsatiladi.

Darslikning 35-sahifasidagi rasm hamda berilgan gaplardan foydalanib berilgan o'yin hamma qo'shilib xursand bo'lib o'ynaydigan o'yinmi yoki yo'q, buni qanday qilish mumkinligi, qaysi holat bullingga o'xshayotganligi aniqlanadi.



Rasmdan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar qaysi o'quvchi nisbatan bulling bo'layotganligini qo'l bilan ko'rsatishi kerak. Sababi esa o'qituvchi bilan birgalikda tushuntirib beriladi.



O'qituvchi birovning ustidan kulish yomon odat ekanligi, "birovning ustidan kulish" jamoa kasalligi ekanligi, kimdir yomon va haqoratli so'zlar aytishsa ham ushbu so'zlar bilan yomon bo'lib qolmaslik darslikning 36-sahifasidagi rasm asosida barcha o'quvchilarga tushuntiriladi.

O'qituvchi va o'quvchilar birgalikda darslikning 37-sahifasidagi rasm asosida vaziyat tahlil qilinadi. Anvar doskaga chiqib masala yechayotganda xatoga yo'l qo'yishi va uni Nodir ahmoq deb haqorat qilishi va bu bilan Anvarni ahmoq bo'lib qolmasligi, masalani noto'g'ri yechadigan bo'lib qolmasligi, karra jadvali esidan chiqib qolmasligi, o'rtoqlari yomon ko'rib qolmasligini tahlil qilib chiqishadi.

Nodirning qilgan ishi noto'g'ri ekanligini xulosa qilishadi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham to'liq tushunishi uchun berilgan rasm asosida sinfda amaliy sahna ko'rinish tashkil qilib ko'rsatib berilishi maqsadga muvofiq.



O'quvchilarga dam olish daqiqasi sifatida **“Berkinmachoq”** o'yini tashkil qilinadi.

Bu uchun o'quvchilar qalamni mushti bilan siqadi va tezlik bilan ikkinchi qo'lga oladi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qiladi.

Komilaning dadasi yangi uy sotib olish natijasida u yangi maktabga kelganligi va u hayajonlansa duduqlanib qolishi, Umida va uni bir nechta sinfdoshlari kulib yuborishi, o'qituvchi bu yomon odat ekanligi, ular xijolat bo'lib qolganligi, tanaffus vaqtida esa hammasi tanishib olganligi haqida so'z yuritiladi.

Shundan keyin barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan Komila maktabga qanday kayfiyatda kelganligi, Umidaning gapidan keyingi holati, yangi o'quvchi kelsa o'rganib ketgunicha qanday yordam berish mumkinligi haqidagi fikrlarini aytib berishi kerak bo'ladi.

Hikoya rasm asosida yana ham mustahkamlanadi.



O'qituvchi barcha o'quvchilarga bizning sinfda ham tez tez bulling bo'lib tursa **“Endi kimdir birovning ustidan kulsa yoki masxara qilsa, indamay qarab turmaymiz”** deb ta'kidlaydi. Boshqa sinflarga doim ahilligimiz bilan o'rnak bo'lish kerakligi aytiladi.

O'quvchilar guruh bo'lib ishlaydi. Bunda darslikda berilgan ko'rsatmalar alohida alohida qilib chiqarib beriladi va **“Birgalikda bullinga qarshi kurashamiz”** mavzusida ko'rsatmalar tayyorlanadi.

O'quvchilar yangi ko'rsatmalar o'ylab topib aytishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar esa berilgan ko'rsatmalar ma'nosini aytib berishi kerak.





Barcha o'quvchilar "Sinfda o'zaro hurmat va ahillik bo'lsa, bulling paydo bo'lmaydi" jumlasini yodida saqlashi lozim.

"Quvonchli sinf – hamma uchun yaxshi joy" metodikasi

Dars davomida **"Quvonchli sinf – hamma uchun yaxshi joy"** mavzusidagi metodikadan foydalaniladi. Bolalarda sinfdagi ijobiy, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit haqida tushuncha shakllantirish hamda hurmat, do'stlik, tinchlik muhitining ahamiyatini anglatish maqsad qilib olinadi.

O'qituvchi: **"Siz sinfda o'zingizni qanday his qilasiz?", "Nimalar sizga yoqadi, Nimalar yoqmaydi?"** deb so'raydi. Bolalarning fikrlari eshitiladi.

Rasmlar orqali tushuntirishga ham ruxsat beriladi.

☒ Quvonchli, pokiza, do'stona sinf rasmi;

☒ Chiqindilar, urushish, yig'lab turgan holatdagi rasm.

Siz qaysi sinfda bo'lishni istaysiz, nega?

Har bir bola 1 ta so'z aytadi: **"Toza", "Jim", "Mehrli", "Tinch", "Do'stona"**. Bu so'zlardan plakat tayyorlanadi. Bolalar o'z sinfi qanday bo'lishini chizadilar yoki turli rasmlardan kollaj yasaydi. Har kim o'z rasmiga bir jumla qo'shadi. Misol uchun **"Mening sinfim – bu do'stlar joyi!"**.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham uyda ota-onasi bilan birgalikda sinfda ahil bo'lish uchun qanday qoidalarga rioya qilish kerakligi yuzasidan fikrlari yozib kelinadi.

14-dars. Volontyorlik

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda sinfda ahil bo'lish uchun qanday qoidalarga rioya qilish kerakligi yuzasidan yozib kelingan fikrlari muhokama qilinadi va rag'batlantiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan ularga shu vaqtgacha kimlar yordam berganligi so'raladi. Javobiga qarab o'quvchilarga beg'araz yordam beradigan oylik olmaydigan odamlar **Volontyorlar** deb atalishi tushuntiriladi.

Barcha o'quvchilarga darslikning 40-sahifasidagi matn o'qib beradi, Sevara va Annaning qilgan savobli ishlari aytiladi. Kimlar yangi mahallada tursa ota-onasi bilan birgalikda daraxtlar ekib tabiatni asrash uchun hissa qo'shishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Undan tashqari chinor va eman daraxtlarining sekin o'sishi lekin uzoq yillar yashab katta daraxt bo'lib ketishi ham aytib o'tiladi.



Odamlarga foyda keltiradigan va evaziga faqat duo olinadigan ishlar savobli ishlar deyiladi. Savob uchun ish qilish xalqimizning eng go'zal fazilatidir.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni eshitishida muammolar bo'lsa jismoniy harakatlarda (o'tirish, yugurish, yurish) muvozanat buzilishlari kuzatilishi, boshqa shaxslarning ovozlari bafarqlik bilan qarashi, sinfda dars jarayonida ovoz o'zgarishlarini unchalik payqamasligi, gapirish jarayonida so'zlarni qayta-qayta takrorlash holati kuzatilishini inobatga ma'ruzachi nutqini eshita olishidagi muammolarni inobatga olib aniq ko'rinadigan qilib gapirish, suhbatlashish jarayonlari aniq va ravon bo'lishi zarur.



Dars qiziqarli hamda tushunarli bo'lishi uchun o'qituvchi yangi ko'chatlar ekilgan maktab bog'iga sayrga olib chiqishi mumkin. Shu asosida matnda aytib o'tilgan jarayonlar amaliyot bilan bog'lab tushuntiriladi. Bir kuni qattiq shamol bo'lib, jala yog'ishi natijasida ko'chatlar singanligi aytiladi.

Sevara va Annaning dadasi esa nozik ko'chatlarning oldiga taxta ustun qoqib unga bog'lab qo'yganligini, shu orqali ko'chatlarni asrab qolganligini ko'rsatadi.

Matn qahramonlarining orzusi misolida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ham orzulari, kelajakda kim bo'lishini orzu qilganligi bilib olinadi.

Undan tashqari imkoniyati cheklangan farzandi bo'lgan yolg'iz ayolga sinfdoshlari bilan yordam berib kelishganligini sog'lom o'quvchilarga siz ham sinfdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam berish savob ish ekanligi eslatib o'tiladi.



Berilgan savollar asosida matn mustahkamlanadi. Odamlarga foydali ish qilish uchun kim bilan maslahat qilish lozimligi yuzasidan o'quvchilarning fikrlari o'rganiladi.



Savobli ish qilish, volontyor bo'lish qiyin emas. Yaxshi niyat qilib, odamlarga beg'araz yordam bermoqchi bo'lsangiz, ish topiladi.

Alina, Komila, Sardor ko'proq savob olish maqsadida daydi itlar boshpanasiga borishi, itlarga mehribonlik qilib qaytishi matn va darslikda berilgan rasm asosida rollarga kirib tushuntiriladi.



Matn alohida ta'lim ehtiyojlariga qay darajada tushunarli bo'lganligi savollar asosida tekshiriladi. Ularga yordam bo'lish maqsadida rasmdan foydalanib javob berish imkoniyati beriladi.

Qolaversa **“Mehr va oqibat”**, **“Mehr-muruvvat darslari”** yuzasidan tushuntirish beriladi.

“Volontyorlik nima va nima uchun kerak?” metodikasi

Mazkur dars **“Volontyorlik nima va nima uchun kerak?”** metodikasi orqali mustahkamlanadi. Metodikani o'tkazishdan **maqsad** bolalarda volontyorlik tushunchasi haqida sodda va aniq tasavvur hosil qilish, volontyorlik faoliyatining imkoniyatlari bilan tanishtirish, o'zaro yordam, hamdardlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirishdir.

Bu metodika Reggio Emilia, vizuallashtirish, tana harakati, va emotsional ifoda texnikalariga asoslangan. **Ishlatiladigan vositalar:** rasmlar, piktogrammalar, mimika va jestlar. O'qituvchi **“Volontyor”** degan so'zni oddiy til bilan tushuntiradi. **“Volontyor – bu odamlar yordamga muhtoj bo'lganida, ularga pulsiz yordam beradigan inson”** hisoblanadi. So'z bilan birga rasm: Nogironlik aravachasida bo'lgan bolaga yordam berayotgan boshqa bola ko'rsatiladi. Har bir rasm ostiga katta harflar bilan so'z yoziladi va bolalar bilan birga o'qiladi.

Keyingi bosqichda esa bolalarga o'zini volontyor sifatida his qildiriladi.

Guruhga bo'linib, turli holatlarni rollarda jonlantiriladi. Bir bola stol ustidagi qog'ozlarni to'kib yuboradi – boshqa bola yordam beradi. Kimdirdan o'yinchog'i tushib ketadi – boshqasi olib beradi. Harakatdan keyin “Qaysi bola volontyor bo'ldi va nega?” savoli beriladi.

Har bir harakatga: **“YORDAM”**, **“O'RTOQLIK”**, **“XUSHMUOMALALIK”** so'zlaridan yorliq tayyorlanadi. Shuningdek rollarni oldindan tayyorlash (*rasm, mimika orqali*) tavsiya qilinadi.

Bolalar yurak shaklidagi qog'ozga quyidagini yozishi yoki rasm chizishi kerak. **“Men kimga yordam berganman?”**, **“Men qanday yordam olganman?”**, so'ngra bolalar navbat bilan tushuntiradi.

Nutqiy rivojlanishida maummosi bo'lgan bolalar uchun so'z o'rniga rasm chizish yoki shaxsiy belgilar orqali tushuntiradi.

Metodikani o'tkazish davomida imo-ishora va piktogramma lug'atidan foydalanish, har bir faoliyatni boshlashdan oldin model orqali ko'rsatib berish, dars oxirida qisqa videorolik (1-2 daqiqa) ko'rsatish tavsiya etiladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham uyda ota-onasi bilan birgalikda biror volontyorlik qilayotgan inson bilan uchrashib intervyu olish aytiladi.

15-dars. Men hayotni sevaman

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda birgalikda volontyorlik qilayotgan insondan olgan intervyu ko'riladi, muhokama qilinadi va rag'batlantiriladi.

O'qituvchi mashhur ertakdan berilgan parchani o'tib beradi. Rasm asosida ertak qahramonlarini tanishtiradi.

Kim kimga yaxshilik qilmoqchi ekanligini, do'stlik yordamini cho'zganligini, kitobing nomi va kim yozganligi aytdi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni eshitishida muammolar bo'lsa hamma berilgan ko'rsatmalarni ham to'g'ri tushunishmasligini, diktant olish jarayonida ko'plab imloviy xatolar kuzatilishi, nima aytilayotganini tushunish uchun ular karnay yoki tovush manbasiga (masalan, televizor) yaqin turishlari, quloq og'rig'idan doimiy shikoyat qilishi mumkin.



Undan tashqari o'qituvchi Pux bilan Xo'tikchanning kayfiyatini qanday ekanligi rolga kirib ko'rsatib berishi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar takrorlab ko'rsatishi lozim.

O'qituvchi kitobni o'qib chiqib umumiy mazmunini qisqacha tushuntirib beradi.

Optimist – har qanday voqeaning yaxshi tomonini ko'radigan, hayotga quvonch bilan qaraydigan odam.

Pessimist – tushkunlikka moyil odam. Pessimist har qanday vaziyatning faqat yomon tomonini ko'radi.

Yangi tushunchalarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilishi uchun sinfdagi o'quvchilar misolida tushuntiriladi.

Darslikning 46-sahifasida berilgan Pessimist odamlarning gaplari o'qiladi, xuddi shu gaplarga optimist odam nima deb javob berishi muhokama qilinadi.

Men qishni yomon ko'raman,
chunki qishda juda sovuq
bo'ladi.

Men yozni yomon ko'raman,
chunki yozda juda issiq bo'ladi,
buning ustiga qorayib qolaman.

Bolalar bilan o'ynashni yomon
ko'raman, chunki baribir
yutqazaman.

Ekskursiyaga bormayman,
chunki u yerda zerikib
ketaman.

Menga xonaki gullar yoqmaydi.
Tagiga qancha suv quysang
ham, baribir gullamaydi.

Uy vazifalarini bajargim
kelmaydi, chunki juda qiyin,
baribir xato qilaman.

Berilgan gaplar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun Optimistik va Pessimistik gaplar qarama-qarshi qo'yib sinfdagi o'quvchilar misolida ochib beriladi.

Darslikning 46-sahifasidagi QK orqali video namoyish qilinadi.

QK va berilgan rasm asosida:

"Hayotni sevish
hayotdagi har bir
ne'matga xursand bo'lib,
shukr qilishdir.
Xushchaqchaq odam

atrofdagilarni ham ham xursand qilib, ko'nglini ko'taradi" jumlasini tushuntiriladi. Ko'rsatib beriladi.



"Ko'raman, sezaman, aytaman, baham ko'raman" metodikasi

Mazkur dars davomida **"Ko'raman, sezaman, aytaman, baham ko'raman"** metodikasidan foydalaniladi. Natijada bolalarda hayotga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiriladi, har bir bolaning o'z qadrini anglashiga, o'zini sevishiga ko'maklashiladi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning his-tuyg'ularini ifoda etishiga imkon yaratiladi.

O'qituvchi quyidagi rasmlarni namoyish qiladi: **"Oila bilan tabiat qo'ynida yurish, bolalar o'ynayapti, quyoshli kun, gullar, qushlar"**.

Bolalarga: **"Bu rasmlarda nimani ko'ryapsiz?"**, **"Bu suratda hayotning qaysi go'zalligi aks etgan?"** savollari beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun har bir rasimga oddiy so'zli yozuvlar qo'shiladi (*Quvonch, ota, do'st, qush*), imo-ishora yoki rasm bilan javob berishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Har bir bola yurak shaklidagi rangli kartochka tanlaydi va unga his-tuyg'usini rasm yoki so'z bilan ifodalaydi. Men quvondim, chunki.... Men hayotni yaxshi ko'raman, chunki....

So'z o'rniga kulib turgan yoki yig'layotgan smayliklar qo'yish mumkin. Har bir bolaning his-tuyg'usi qabul qilinadi va tasdiqlanadi: **"Bu juda yaxshi"**, **"Sen shunday his qilganing tabiiy holat"**.

Har bir bola **"Men hayotni shunday sevaman"** jumlasini davom ettiradi. Men hayotni sevaman, chunki menda ... bor. Misol uchun: **"Men onamni sevaman"**, **"Men do'stlarim bilan o'ynayman"**.

Bolalar o'zlari uchun hayotdagi eng quvonchli voqea rasmini chizadi.

Yakunda o'qituvchi har bir bolaning ishini namoyish qilib, unga motivatsiya beradi. Bu juda ham go'zal rasm! Sen hayotdagi eng chiroyli tuyg'uni chizibsan!

“Men hayotni sevaman” degan devoriy plakat yaratiladi va barcha bolalar yurak shaklida o'z rasmini yopishtiradi. Bu uchun: yurak shaklidagi kartochkalar, rasmlar, piktogrammalar, rangli qog'oz va flomasterlar, his-tuyg'ular ifodalanadigan smayliklar zarur bo'ladi.

Shu o'rinda:

har bir bolaning hissiy holatiga hurmat bilan yondashish;

og'zaki ifoda o'rniga rasm, imo-ishora, ranglardan foydalanish imkonini yaratish;

oldindan ko'rsatma berib, darsni vizual reja orqali tushuntirishga alohida ahamiyat bering.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham uyda ota-onasi bilan birgalikda yoqtirgan ertak, hikoya, multfilmlardagi qahramonlar yodga olinadi. Ularning qaysi biri optimist, qaysi piri pessimist ekanligi ta'ridlab kelinadi.

16-18-dars. His-tuyg'ularimiz

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda yoqtirgan ertak, hikoya, multfilmlardagi qahramonlar eslab ularning qaysi biri optimist, qaysi biri pessimist ekanligi eshitiladi va rag'batlantiriladi.

Darslikning 47-sahifasidagi QK hamda berilgan matn davomida barcha o'quvchilarga hissiyot haqida umumiy tushunchalar beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham ko'rib tushunishi uchun o'quvchilar bilan birgalikda kulish, xursandlik, yig'lash va xafa holat yuz emotsiyalari orqali ko'rsatib beriladi.

Berilgan hissiyotlarni ularga mos rasm bilan birlashtiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun har biri o'quvchilar yuz artikulyatsiyalari orqali amaliy bajarib ko'rsatiladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni eshitishida muammolari bo'lsa suhbatlashish jarayonlari aniq va ravon bo'lishi, hamma berilgan ko'rsatmalarni ham noto'g'ri tushunishmasligini, diktant olish jarayonida ko'plab imloviy xatolar kuzatilishi, nima aytilayotganini tushunish uchun ular karnay yoki tovush manbasiga (masalan, televizor) yaqin turishi, quloq og'rig'idan doimiy shikoyat qilib yurish holatlariga ahamiyat berish lozim.



Barcha o'quvchilarda amaliy tushunchalar hosil bo'lgandan keyin yomon kayfiyat odam sog'ligi salbiy ta'sir qilishi, bu esa boshqalarning ham

kayfiyatiga ham yomon ta'sir qiladi. Yaxshi kayfiyat esa sog'lik uchun foydali bo'lib inson umrini uzaytirishi mumkin bo'lishini ta'kidlaydi.



Darslikning 48-sahifasida joylashgan rasmlar asosida hikoya tuziladi. Rasmdagi bolalarning suhbat nima haqidagi o'ylab topiladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun rasmdagi har bir holat alohida alohida qilib ko'rsatiladi va holat tushuntiriladi.



Rasm tanlanib bolaga ko'rsatilsa ta'riflab bera olishi kerak bo'ladi.



O'qituvchi hissiyotni insonning o'ziga va atrofdagilarga ham uning qanday ahvoldaligini ko'rsatib turishini, birovning hissiyoti, kayfiyati qandayligini topa olsa odamlar bilan muomala qilishda qiynalmaslik ham aytib o'tilishi zarur.

Yuz ifodasi (mimika), kundalikdagi yozuvlar, imo-ishoralar, gapning ohangi, oraliq nazoratdagi baholar, birovning inson haqidagi fikrlariga odamlarning qanday hissiyot his qilayotganligini nimaga qarab bilsa bo'lishi topiladi.

Hayron bo'lgan, xafa bo'lgan, qo'rqqan, hayajonlangan, boshiga tashvish tushgan odamlarning tashqi ko'rinishi qanday bo'lishi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan birgalikda muhokama qilinadi, boshqa (sog'lom) o'quvchilar tomonidan ko'rsatib beriladi.

Dars jarayonini qiziqarli qilish maqsadida eng faol o'quvchilardan emotsiyalarni mimika va ishora bilan ko'rsatish so'raladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar boshqa o'quvchilar bilan birgalikda topishadi.

Barcha o'quvchilar bilan birgalikda berilgan jumlar muhokama qilinadi. Har bir jumalarni turli ohanglarda o'qib, qaysi emotsiyaga mos kelishi aniqlanadi.

Konfetni yomon ko'rsanmi?

O'rmon ichi qop-qorong'i ekan.

Nega meni turtasan?

Dengiz qanday cheksiz!

Tug'ilgan kunimga hech kim kelmadi.



Ushbu topshiriqni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham bajarishi uchun dastlab barcha o'quvchilar bilan birgalikda berilgan gaplar emotsiyalarga moslab qo'yib chiqiladi. Undan keyin gap o'qib holat tushuntiriladi, bola mos emotsiya yozilgan joyga qo'yadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham uyda ota-onasi ko'magi bilan ko'zgu oldida turli emotsiyalarni ifodalab suratga olinadi va ushbu suratdagi emotsiyalarni aytib beradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham uyda ota-onasi ko'magi bilan ko'zgu oldida turli emotsiyalarni ifodalab olgan suratdagi emotsiyalarni ifodalab beradi. Rag'batlantiriladi.

Barcha o'quvchilarga o'zining va atrofdagilarning his-tuyg'ularini tushunadigan odam boshqalar bilan ham muomala qilishda qiynalmasligi, salbiy hissiyotlarni jilovlab, arzimagan narsaga siqilmay, kayfiyatni ko'tarib olish tushuntiriladi.

Berilgan so'zlarni to'ldirib salbiy hissiyotlarni jilovlash usullaridan ularni nomini aytish ustida ishlanadi.

Dastlab alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga salbiy hissiyotlarga sababchi bo'lgan omillar tushuntiriladi, undan keyin nuqtalar o'rni to'ldiriladi.

... meni xafa qildi.
... jahlim chiqdi.
Men g'azabdaman, chunki...
Men ... qo'rqib ketdim.
... menga rosa alam qildi.
... uchun kayfiyatim yo'q.

A vibrant, cartoon-style illustration of a classroom. In the foreground, a boy with black hair, wearing a white shirt and blue overalls, sits at a wooden desk, holding a ruler and smiling. To his left, a girl with black hair in a ponytail, wearing a blue dress and a pink bow, stands with her back to the viewer. Next to her, a boy in a white shirt and blue overalls stands with a surprised expression, his hand near his mouth. A red backpack sits on the floor near him. In the background, a girl with black hair and a large red bow waves her hands. Two boys in white shirts and blue overalls stand near a green chalkboard; one holds a black object. Another boy stands by a window with yellow curtains, looking out. A boy in a white shirt and blue overalls is running towards the right. The room has a blue door, a green chalkboard with drawings of a sun, a lightning bolt, and a house, and a window with yellow curtains. A potted plant is on the left, and a wooden cabinet with a potted plant is on the right.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan bir qatorda boshqa (sog'lom) o'quvchilarga salbiy hissiyotlardan chiqishni ikki usuli:
salbiy hissiyotni sababini aniqlab keyingi safar uni oldini olish
biroz harakat qilib kayfiyatni ko'tarish, har qanday vaziyatdan
chiqishning bir yo'lini topish.

Bizga ijobiy nima hissiyot beradi?

Salbiy hissiyotni yengishga bizga nima yordam beradi?

Salbiy hissiyotni yengishi uchun birovga qanday yordam bersa bo'ladi?
degan savollarga javob topiladi.

Barcha fikr bildirishiga alohida ahamiyat berish zarur.

Ushbu darslarni yanada tushunarli bo'lishi uchun **“Ko’r, tanla, ayt, bahola”** metodikasidan foydalaniladi. Natijada bolalarga asosiy his-tuyg’ular (*quvonch, g’am, qo’rquv, g’azab, hayrat*) haqida oddiy va tushunarli ma’lumot beriladi. O’z his-tuyg’ularini aniqlash, ifoda etish va boshqalar his qilayotgan tuyg’uni tushunishga yordam berish shakllanadi.

Zaruriy vositalar 📁 : smayliklar kartasi (5 asosiy his-tuyg'u), hayotiy vaziyatlar tasvirlangan rasmlar, rangli kartochkalar, rangli yuraklar yoki his-tuyg'ularni chizish uchun turli materiallar, yuz ifodasi ko'rsatilgan maskalar va boshqalar.

O'qituvchi asosiy his-tuyg'ularni ifodalovchi **yuz ifodalariga ega smayliklar yoki real suratlarni** ko'rsatadi: 😊 **Quvonch**, 😐 **G'am**, 😡 **G'azab**, 😱 **Qo'rquv**, 😨 **Hayrat**. Har bir rasm ostida katta harflar bilan his-tuyg'u nomi yoziladi. Rasmlar kartochkalarni tanlash imkoniyati beriladi va **“Bu bola nima his qilmoqda?”**, **“Senga bu holat tanishmi?”** savollari beriladi. O'qituvchi turli hayotiy vaziyatlarni aytadi: **“Do'sting seni tug'ilgan kuniga chaqirdi”**, **“O'yinchoq sinib qoldi”**, **“Senga yordam berishdi”**. Bolalar kartochkadan o'z his-tuyg'usini tanlab ko'rsatadi. Shu o'rinda har bir holatga rasmlar yordam (*hikoyacha, qisqa video, mimika bilan jonlantirish*) hamda oldindan tayyorlangan his-tuyg'ular kartasi berish tavsiya qilinadi.

Bolalarga o'z his-tuyg'usini ifoda qilish uchun quyidagi jumlaning davom ettirish so'raladi: **“Men hozir ... his qilyapman, chunki ...”**. Misol: **“Men hozir xursandman, chunki men rasm chizdim”**.

Qo'llab-quvvatlash maqsadida smaylikni ko'rsatish yoki mimika bilan ifodlash, bola aytganini to'g'rilash, tasdiqlash: **“Ha, sen xursand ekansan, bu juda yaxshi!”** deb aytish kerak.

His-tuyg'ularni boshqarishni o'rganish uchun esa: **“Do'stingdan ranjiding – nima qilsang, o'zingni yaxshi his qilasan?”**, **“Qo'rqayotganingda nima yordam beradi?”** kabi savollar beriladi. Javoblar rasmlar variantlari bilan beriladi: **“Do'sti bilan gaplashish”**, **“O'yinchoq bilan o'ynash”**, **“Ona bilan quchoqlashish”**.

Bola o'ziga yoqqan his-tuyg'uni tanlaydi va rasimga chizadi yoki rangi bilan ifodalaydi (**Masalan: “Quvonch – sariq”**).

Mazkur metodikani o'tkazish uchun 🧑🏫 **o'qituvchiga tavsiyalar:**

har bir bola o'zini xavfsiz his qilishi uchun iliq, ijobiy muhit yaratish;
har doim **model** ko'rsatish: qanday ko'rsatadi, aytadi, tanlaydi;

alternativ aloqa vositalari – rasmlar, imo-ishoralar, kartochkalar qo'llash zarur.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham uyda ota-onasi bilan birgalikda o'ziga ishonchi ortgan, o'zini g'olib deb his qilgan vaqtlardagi kayfiyatini eslab, eslagan kayfiyatni rasmlarda ifodalaydi.

19-dars. Mening odatlarim

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda o'ziga ishonchi ortgan, o'zini g'olib deb his qilgan vaqtlardagi kayfiyatini eslab, eslagan kayfiyatni rasmlarda ifodalaydi. Rag'batlantiriladi.

O'qituvchi darslikning 52-sahifasidagi matnni tushuntirishdan oldin o'quvchilardan maktabga kelishdan oldin qanday ishlar bilan shug'ullanishini so'raydi. Undan keyin matn qahramoni Akmalni qachon uyg'onishi, qanday ishlar bilan shug'ullanishi va bu ishlarni har kuni qilishini aytadi. Har kuni qilinadigan ishlarni nima deb atash mumkinligini yod oldiradi.

Undan keyin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham asta sekin har kuni ertalab nima qilishini, har kuni takrorlanadigan ishlarini aytib berishi lozim. Zarurat bo'lsa o'quvchilarni har kuni takrorlanishi mumkin bo'lgan ishlar rasmini ko'rsatib berishiga imkoniyat beriladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ko'rishida muammolari bo'lsa gapirayotganda imo-ishora va mimikalardan kam yoki umuman foydalanmasligi, notanish predmetni ushlab ko'ribgina tushuncha hosil qilishi, mustaqil harakat qilish qobiliyatida cheklanishlar mavjud bo'lishi, ko'rish qobiliyatining yetishmasligi natijasida boshqa sezgi organlari yordamida qoplashga harakat qilishi, foydalanadigan materiallarga ko'zlarini yaqin masofaga olib kelib qarashi va o'qish holatlari kuzatilishi mumkin.



Barcha o'quvchilarga:

“Odat” inson uchun odatiy bo'lib qolgan xatti-harakatlardir;

**Odat bizni doim qilib yuradigan ishlardir;
yaxshi odatlar bizga
yordam berishi, kuchli,
sog'lom, aqlli qiladi,
rivojlantiradi;**

**yomon odatlar esa
bizga zarar keltiradi, xalaqit
beradi, lekin ko'pincha biz
buni sezmaymiz yoki
tushunmaymiz** jumalari
batafsil amaliyot bilan bog'lab
tushuntiriladi.

Darslikning 53-
sahifasida ro'yxat asosida
berilgan jumalarning
qaysilari foydali odatlar
deyish mumkin. Foydali
odatlar aniqlangandan keyin
barcha o'quvchilar qatorida
alohida ta'lim ehtiyojlari
bo'lgan bolalar ham o'qituvchi
yordamida o'z misollari bilan

- aldash
- bukchayib yurish, o'tirish
- yuvinish
- ertalab badantarbiya qilish
- tishlarni tozalash
- hamma narsani o'z joyiga qo'yish
- tirnoqni tishlash
- uy vazifasini o'z vaqtida bajarish
- sport bilan muntazam shug'ullanish
- tayyor bo'lmasa, darsga bormaslik
- yotgan holda kitob o'qish
- ovqatlangandan keyin idishlarni yuvib qo'yish
- kompyuterda ishlaganda orada ko'zni dam oldirib turish
- bo'sh vaqt topildi deguncha telefon o'ynash
- fastfudni ko'p yeyish
- doim quloqchin taqib yurish
- burunni, tishlarni kovlash
- og'izni qo'l bilan to'smasdan akxa urish, yo'talish

to'ldirib chiqiladi.



1
Alisher yarim tungacha
uxlamadi



2
Ertalab turgisi kelmadi,
uyquisi keldi



3
Uygusirash maktabga
otlanishiga xalaqit qilyapti



4
Nonushtaga
ulgurmadi



5
Shoshganda yo'lda biror
muammo chiqadi



6
Maktabga kelsa, nimadir
esidan chiqib, uyda
qolibdi



7
Uyqusi kelib, kallasiga
dars kirmadi



8
Jismoniy tarbiya darsida
oyog'i qayrilib ketdi



9
Alisher kechasi qilgan
ishlarini eslay boshladi

Darslikning 54-sahifasida
berilgan har bir rasmni
tagida yozilgan gapi bilan
bog'lab tushuntirilib
chiqiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari
bo'lgan bolalarga har bir
rasmni uning mazmunini
ifodalagan gaplarni tagiga
moslab qo'yib
birlashtiriladi.

Rasm asosida qahramon
Alisher nimalar haqida
o'ylab qolganligini, ertaroq
uxlaganda bolaning kuni
qanday o'tganligini, muhim
ishlarni vaqtida qilishga va
dam olishga qanday
yaxshi odatlar yordam
berishini o'qituvchi misollar

asosida tushuntirib berishi kerak.

O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda:
xonani shamollatadi;
sinfni tozalab, changlarni artishadi;
gullarga suv quyishadi;
chiqindilarni turlarga ajratib, alohida idishlarga solishadi va bu eko-odatlar deyilishi aytiladi.

O'quvchilarning fikrlarini bilish maqsadida qanday **eko-odatlar** bilishi so'raladi.

Darslikning 55-sahifasida berilgan **“Yaxshi odatlar qanday paydo bo'ladi”** savoliga javob bo'ladigan matn ifodali o'qib mazmuni tushuntirib beriladi. Biror ishni odat tusiga aylantirish uchun odam o'zini majburlashi, erinmasdan, dangasalik qilmasdan irodani chiniqtirish aytiladi.

Bir ish kamida **21 kun** davomida takrorlansa odatga aylanishi badantariya mashg'ulotlari misolida tushuntiriladi.

“Ko'ramiz, ajratamiz, gapiramiz, harakat qilamiz” metodikasi

Dars davomida **“Ko'ramiz, ajratamiz, gapiramiz, harakat qilamiz”** metodikasi o'tkaziladi. Bolalarda yaxshi va yomon odatlar haqida tushuncha hosil qilish, bolalarni kundalik hayot uchun foydali odatlarni shakllantirishga undash, oddiy va foydali odatlarni tan olishi, amalda qo'llashiga yordam berishni maqsad qilib olinadi.

O'qituvchi quyidagi holatlarni ifodalovchi rasmlarni ko'rsatadi: Qo'lni yuvayotgan bola (● Yaxshi odat), erta turib nonushta qilayotgan bola (● Yaxshi odat), axlatni polga tashlayotgan bola (● Yomon odat), dars vaqtidan chalg'iyotgan bola (● Yomon odat).

Keyin esa quyidagi savollar beriladi: **“Bu bola nima qilayapti?”**, **“Bu yaxshi odatmi yoki yomonmi?”**.

Har bir rasm ostida katta harflar bilan: **“Yaxshi odat”** yoki **“Yomon odat”**, imo-ishora bilan yoki smaylikni ko'rsatib javob berishi uchun imkon beriladi.

O'quvchilarga 6–8 ta odat tasvirlangan kartochkalar beriladi. Ular bu kartochkalarni **“Yaxshi odatlar”** va **“Yomon odatlar”** deb ikki qismli doskaga yoki stolga joylashtiradi. Misol uchun:

soch tarash, tish yuvish, kitob o'qish – yaxshi;

ovqatdan so'ng qo'l yuvmaslik, qichqirish – yomon.

Tanlangan rasmlar katta va yorqin bo'lishi, har bir bolaning yordamlashuvchi juftligi bo'lishi mumkin (*tengdoshi, maxsus pedagog*).

Bolalarga o'z odatlarini ifoda etish maqsadida berilgan gaplarni davom ettiriladi. Men har kuni ... qilaman, chunki bu foydali. Misol uchun **“Mening yaxshi odatim bu – har kuni ertalab to'shakni yig'ish”**.

Undan keyin o'qituvchi aytadi, bola harakatda ko'rsatadi: **“Qo'l yuvamiz”** – bolalar harakat bilan ko'rsatadi, **“Tish tozalaymiz”** – tish yuvish harakati, **“O'rtog'imizga yordam beramiz”** – ko'rsatmalik-harakat.

Bu bolalarda ijobiy odatlarni faol tajriba orqali mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar:

har bir bolaning yutuqlari uchun motivatsiya berib borish: "Sen juda yaxshi odatni bilasan!";

faqat yomon odatni tanqid qilish emas, balki uning o'rniga qanday odat yaxshi ekanini tushuntirish;

rasmlar, kartochkalar, imo-ishoralar bilan ishlashni davomli tarzda olib borish.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalariga farzandi bilan 21 kunlik kundalik tuzib, har kuni yangi o'rganilgan yangi odatni qilib bo'lgach belgilab boriladi, har bir kun uchun mukofot o'ylab topiladi, yangi odatlar kundan kunga oson bo'lib borayotganligi kuzatib boriladi.

20-dars. Mening sog'lig'im

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda 21 kunlik kundalik tuzib olib borilayotgan ishlar yuzasidan suhbatlashiladi.

Rag'batlantiriladi.

O'qituvchi barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham ertalab maktabga kelishdan oldin nimalar tanavvul qilib kelganligini so'raydi.

Undan keyin inson salomatligi uning yeyishiga bog'liqligi shuning uchun sog'lom ovqatlanishni o'rganib olishimiz kerakligi tushuntiriladi.

Oziq ovqat mahsulotlari besh guruhga bo'linishi darslikda berilgan rasmlar hamda har bir rasm uchun berilgan ta'riflar asosida tushuntiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini guruhlarini bilish uchun sinfda iloji boricha mavjud tabiiy narsalarni ko'rsatib tushuntirishga harakat qilinadi. Sinfda mavjud bo'lmagan mahsulotlarni uyda ota-onasiga farzandiga ko'rsatish so'raladi.

Dars jarayoni qiziqarli qilish maqsadida 56-57-sahifalarda berilgan ta'riflar o'qib beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar rasmlardan qaysi biriga tegishli ekanligini topishi zarur bo'ladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar obyektlarni ham qo'llari bilan ushlab ko'rib tanishib chiqadi, mayda shriftdagi yozuvlarni o'qishlarda qiynaladi, bir xil nuqtaga uzoq va davomiy qarashadi, harakatlanib turgan biror obyektни ko'zlari bilan kuzatish jarayonida muammolar kuzatiladi, ranglarni farqlay olmaydi, ko'zini ishqalashi, qisib qarashi kabi jismoniy alomatlar kuzatiladi, uzoqda joylashgan shaxslar gapirmasa taniy olmaslik, predmetlarni bir biridan farqlashda doimiy qiyinchilik kuzatiladi.





 Shokolad, shirin pishiriqlar, gazlangan ichimliklarni iloji boricha kamroq iste'mol qilish kerakligini tushunib yetish zarur.

Berilgan savollar asosida oziq-ovqat mahsulotlari guruhlarini mustahkamlanadi.

Darslikning 58-sahifasidagi matn va rasm asosida “**Sevara yomon odatini qanday tashladi?**” savoliga javob topiladi. Sevara qanday holatdan keyin shirinlik yeyishni tashlaganligi tushuntiriladi va sinfda kimdir shirinliklarga o'ch bo'lsa xulosa chiqarib olishini aytadi.



Barcha o'quvchilarning fikrini bilish maqsadida savollar beriladi. Ularning javobiga qarab qo'shimchalar kiritiladi.



Me'yorida ovqatlanish qoidasi yod oldiriladi. Unga katta ham kichik ham birdek amal qilish sog'lik uchun foydali ekanligi tushuntiriladi.

Darslikning 59-sahifasida berilgan rasmlar asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ishtirokida kichik guruhlarda ishlanadi. Topshiriq sifatida bir kunlik menyu tuzish vazifasi beriladi va uni boshqa guruhlar bilan solishtirilib, yaxshi va yomon tomonlari muhokama qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar rasmda berilgan har bir mahsulotni qo'li bilan ko'rsatib nomini aytib berishi lozim bo'ladi.



Barcha o'quvchilar agar inson to'g'ri ovqatlansa qanday ijobiy o'zgarishlar bo'lishini bilib olishi zarur.

To'g'ri ovqatlanishni bolalikdan boshlash kerak!

“Ko‘ramiz, gaplashamiz, bajaramiz, mustahkamlaymiz” metodikasi

Dars davomida **“Ko‘ramiz, gaplashamiz, bajaramiz, mustahkamlaymiz”** metodikasi o'tkaziladi. Bolalarda sog'liq nima ekanligi, uni asrash uchun nimalar qilish kerakligi, doim sog'lom bo'lish uchun foydali odatlar va shaxsiy gigiyena haqida tasavvur shakllantirish maqsad qilib olinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga o'z sog'lig'ini asrashga oid oddiy harakat va qoidalarni eslab qolishga yordam berish uchun rasmiy materiallar, oddiy so'zlashuv va amaliy mashg'ulotlardan foydalaniladi.

Zaruriy vositalar 🛒 :

Inson sog'ligiga oid rasmiy kartochkalar (*tish yuvish, qo'l yuvish, meva yeyish va h.k.*), tish cho'tkasi, sovun, sochiq kabi buyumlar (*agar mavjud*

bo'lsa), yashil va qizil rangli kartochkalar (foydali yoki zararligha ajratish uchun).

O'qituvchi bolalarga rasmlar ko'rsatadi: Tish yuvayotgan bola , ko'chada non yeyotgan, qo'li iflos bola , yotishdan oldin suv ichayotgan bola , doimiy o'yin o'ynab, dam olmayotgan bola .

Har bir rasm ostiga katta va aniq yozuvlar: **“Foydali”** yoki **“Zararli”** deb yoziladi. Rasm ostidagi smaylik (/ ) orqali baho beradi.

O'qituvchi o'quvchilarga oddiy savollar beradi: **“Sog'lom bo'lish uchun nima qilamiz?”**, **“Qanday ovqat foydali?”**, **“Qachon uxlash kerak?”**.

Bolalarga quyidagilarni aytadi (yoki ko'rsatadi):

- ✓ tish yuvaman;
- ✓ erta uxlayman;
- ✓ meva iste'mol qilaman;
- ✓ do'stlarim bilan o'ynayman;
- ✓ ko'p telefon o'ynamayman.

O'qituvchi bolalar bilan quyidagilarni harakatda bajaradi: Tish yuvish harakati, qo'l yuvish ketma-ketligi (ko'rsatib, bajarib ko'rish), burunni to'g'ri artish, toza suv ichish. Harakatlarni bajarish vaqtida qo'llab-quvvatlash uchun har bir harakat rasm yoki real buyum bilan ko'rsatiladi (masalan: tish cho'tkasi, sochiq, suv idishi)

Berilgan ma'lumotlarni mustahkamlash maqsadida **“Sog'lom odatni tanla”** o'yini o'tkaziladi. O'quvchilarga ikkita har xil rasm ko'rsatiladi. **Yaxshi – tish yuvish, yomon – shirinlikni ko'p yeyish.** Bola tanlaydi: **“Men 1-rasmni tanlayman, chunki bu sog'liq uchun foydali”**. Eshitishida va tovush talaffuzida kamchiligi bo'lgan bolalar – rasmni ko'rsatadi yoki **“Yashil”** rangli kartochkani ko'taradi.

O'qituvchiga metodik tavsiyalar:

Har bir tushuncha rasm, imo-ishora, oddiy so'zlar bilan tushuntirish; ijobiy baholashdan foydalanish, **“Ajoyib tanlov!”**, **“Sen sog'lom hayotni yaxshi bilasan!”**;

har bir bola savol-javobda, harakatda, tanlovlarda qatnashishini nazorat qilish.

Yakunda har bir bola o'zining biror ijobiy odatini rasmini chizadi yoki rasmini tanlaydi va **“Men sog'lom bo'lish uchun ... qilaman”** deb aytadi.

Bu rasm yoki rasmlı kartochkalar devorga osilib, sinfda **“Sog'lom odatlar burchagi”** tashkil qilinadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari ko'magida berilgan fikrlardan qaysilari to'g'ri ekanligi aniqlanib kelinadi.

Donli mahsulotlarda oqsil ko'p bo'ladi;
dukkakli mahsulotlar go'shtning o'rnini bosadi;
kletchatka organizm uchun qurilish materialidir;

meva va sabzavotlar kunlik yegulikning yarmini tashkil qilishi kerak;
shirinliklarni ko'p yeyish mumkin emas.

21-22-dars. O'zimni boshqaraman

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi ko'magida berilgan fikrlaridan to'g'rilarini aytib beradi. O'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

Darslikning 60-sahifasidagi QK havolasi ostidagi video rolik namoyish qilinadi. Qaysi o'quvchi to'g'ri yo'l tanlaganligi yuzasidan suhbatlashiladi.

Har bir berilgan vazifani vaqtida bajarish zarurligi barcha bolalar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ushbu rolik orqali tushuntiriladi.

Dars mazmuni tushunarli bo'lishi uchun Akmal va Madina yordamidan foydalaniladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar gohida o'zini chiroyli ta'sirli ma'noda gapirayotgandek hisoblaydi, tanqid qilinsa tanqidga qarshi xatti-harakatlar kuzatiladi.

	O'quvchilarda dars mazmuni tushunarli bo'lishi hamda muloqotchanlik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida Akmal va Madina suhbatidan foydalaniladi. Suhbat davomida Akmal Madinaga ertalab zo'rg'a uyg'onishini aytishi, Madina esa qanday qilib erta uyg'onish yuzasidan maslahatlarini beradi. Ertadan boshlab qo'ng'iroqni 6 ga qo'yib 21 kun davomida badantarbiya qilaversa soatsiz erta turishni o'rganishini aytadi.	
---	--	---

Ushbu yaxshi odatni ertadan boshlab barcha o'quvchilar qatorida aholida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham 21 kun davomida shug'ullanib ko'rishini atiladi.



“Yomon odatlarni ertaga emas, bugun tashlash osonroq bo'ladi” Konfutsiyni gapini mazmuni tushuntirib beriladi.

O'qituvchi har bir inson yaxshilikka intilishi, hamma ishi baroridan kelishini xohlaydi, lekin bular uchun xohishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Bu uchun odam dangasa, o'yinqaroq bo'lsa xohlagan narsasiga erisha olmaydi.

Bu jarayon alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun mashhur insonlar hayot yo'lidani misollar keltiriladi. Yomon odatlar yozilib uni qilish natijasidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy omillar atiladi.

Tishingizni har kuni yuvib turmasangiz, u oppoq bo'lmaydi;

Har kuni kitob o'qimasangiz, bilim ololmaysiz;

Muntazam mashq qilmasangiz, chempion bo'lmaysiz deb tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Istagan narsaga erishish uchun istamagan narsani qilishga o'zini majbur qila olish ichki intizom deyiladi.

Darslikning 61-sahifasi ustida ishlanadi. Rasm asosida barcha o'quvchilarga ichki intizomga nimalar yordam berishini, nimalar unga xalaqit berishi aytib beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga har bir jumlaning ma'nosini ochib berish uchun aniq misollar asosida ishlanadi.



Karim va Zafar misolida hech narsaga chalg'imasdan sport to'garaklariga qatnashish natijasida g'olib bo'lishi tushuntiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun **Karim va Zafarning** o'rnida bo'lganda

qanday yo'l tutishi so'raladi va shu orqali qanchalik tushuncha hosil bo'lganligi aniqlanadi.

Jarayon bolalardan qaysi biri sportda g'olib bo'lganligini va nima uchunligi ochiqatlanadi.

Darslikning 62-63-sahifasidagi **"Ustoz sabog'i"** hikoyasi asosida barcha o'quvchilarga ustoz-shogird an'analari, sabr-toqat, halol mehnat tushunchalari, mas'uliyat shakllantiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham berilgan jarayon tushunarli bo'lishi uchun yosh nihol va daraxt rasmi ko'rsatib taqqoslanadi. Nihol astoydil parvarish qilinsa, ortiqcha shoxlarini kesilsa, yozda issiqdan, qishda sovuqdan himoya qilinsa daraxt bo'lishi tushuntiriladi.



Hikoya savollar asosida mustahkamlanadi. Hayotda doim sabrli, mas'uliyatli, intizomli bo'lish zarurligini yodda tutish lozimligi yana bir eslatib o'tiladi.

Alisher Navoiyning darslikni 63-sahifasida berilgan xalq o'gitlaridan parchasini barcha o'quvchilar o'zlari mustaqil, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qituvchi va ota-onalar yordamida yod olish vazifasini beradi.

“Ko‘ramiz, gaplashamiz, harakat qilamiz, mustahkamlaymiz” metodikasi

Bu darsda davomida **“Ko‘ramiz, gaplashamiz, harakat qilamiz, mustahkamlaymiz”** metodikasi o'tkaziladi.

O'quvchilarga o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish haqida boshlang'ich tushunchalar berish, sabr, o'zini tuta olish va ijobiy munosabat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish, o'z harakatlari, his-tuyg'ularini ifoda etishiga imkon yaratish maqsad qilib olinadi.

O'qituvchi quyidagi holatlarni ifodalovchi rasmlarni ko'rsatadi: **“Quvonayotgan bola 😊, g‘azablangan bola 😡, qo‘rqayotgan bola 😱, hafsalasi pir bo‘lgan bola 😞”**.

Bolalarga quyidagi savollar beriladi: **“Bu bola nima his qilayapti?”, “Siz ham shunaqa his qilganmisiz?”**.

Bolalarni muloqotchanligini oshirish uchun suhbat va savol-javoblar tashkil qilinadi. Bolalarda:

Agar g'azablansang, nima qilasan?

Agar o'rtoqing bilan tortishsang, nima qilish kerak?

O'zingni tinchlantirish uchun nima foydali? kabi savollar beriladi.

Javob berish uchun misollar:

- ✓ Chuqur nafas olaman;
- ✓ Bir zum jim bo'laman;
- ✓ O'yinchoqni boshqa bolaga navbat bilan beraman;
- ✓ O'zimga **“Xo'p, hozir tinchlanaman”** deyman.

Bolalarni guruh bo'lib harakat qildirish uchun **3 marta** chuqur nafas olib, chiqarish, qo'lini ko'ksiga qo'yib, **“Men tinchman”** deb aytish, sekin 5 gacha sanash, ko'zlarini yumib, 10 soniya jim turish kabilar bajariladi.

Amalga oshirilgan ishlarni mustahkamlash maqsadida **“Men o'zimni boshqaraman, chunki...”** jumlasini davom ettiriladi. Har bir bola (*yoki rasm tanlab*) aytadi yoki ko'rsatadi:

“Men o'zimni boshqaraman, chunki ...”.

“Men do'stlarimni hurmat qilaman”, “Men g'azablanganimda nafas olaman”, “Men sabr qilaman” va hokazolar.

O'qituvchiga metodik tavsiyalar:

har bir bolaning harakati va hissiyotiga alohida e'tirof berish: **“Sen o'zingni ajoyib boshqarding!”**;

bolalarni kinoya yoki keskin gap bilan emas, muloyimlik bilan yo'naltiring.

har bir tushunchani rasm, imo-ishora yoki oddiy soʻzlar orqali takrorlang.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda **“Men bu yil nimalarni o'rgandim?”** mavzusida qisqa hikoya yozib keladi.

23-24-dars. An'analar – xalq xotirasidir

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi ko'magida **“Men bu yil nimalarni o'rgandim?”** mavzusida yozib kelingan qisqa hikoya tekshiriladi, aytib berish so'raladi, rag'batlantiriladi.

Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ham **“An'ana”** so'zini ma'nosini urf-odatlarimizni aytib berish, milliy libos, taomlar, hunarmandlik asboblari ko'rsatish orqali tushuncha hosil qilinadi.

Sopol buyumlar haqida dastlab o'qib beriladi, undan keyin rasmi ko'rsatiladi, yakunida esa tabiiysini qo'l bilan ushlab ko'rish imkoniyati beriladi.

Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ham **“Dunyoga mashhur sopol buyumlar”** hikoyasi orqali ona vatanga muhabbat, g'urur, faxrlanish his tuyg'ulari shakllantiriladi. Dastlab bolalarga hikoya qahramoni ismlari o'rgatiladi, undan keyin gaplashgan davlat fuqarolari, yakunda esa O'zbekistonni qaysi hududlarida yasashini o'rgatiladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan tayanch harakatida muammosi bo'lgan bolalarga maxsus hamda korreksion xizmatlar berilishda mustaqil harakat qilish qobiliyatini, ko'nikmalarini, ularni muvofiqlashtirishda cheklanishlarni, harakatlanishdan ikkilanib, passiv pozitsiyaga o'tib olishni afzal ko'rish holati ko'p kuzatilishini, ko'pincha charchoqdan shikoyat qilishlarini, muvozanat buzilishlari kuzatilishini, yurish, tik turish uchun maxsus jihozlar zarur bo'lishini, qo'l, oyoq va shu kabi qo'shma og'riqlardan shikoyat qilishlarini inobatga olish zarur.



Hikoya darslikning 65-sahifasida berilgan savollar asosida mustahkamlanadi. O'quvchilardan kim O'zbekistonning kulolchilik rivojlangan viloyat, tuman (Shahar), qishloqda tug'ilganligini so'raydi.



1. Rishton lagani. 2. Shahrisabz lagani. 3. G'ijduvon lagani. 4. Xorazm lagani. 5. Afrosiyob lagani. 6. Urgut lagani. 7. Andijon lagani.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar har bir hududda yasalgan laganlarni eslab qolishi uchun darslikning 66-sahifasida berilgan har bir lagan alohida alohida qilib chiqarib olinadi va kesiladi.

Har bir kesilgan lagan nomi aytilganda bolalar o'sha laganni ko'rsatishi, nomi yozilgan qog'oz parchasini ham topib ko'rsatishi kerak bo'ladi.

O'quvchilarning tasavvur ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida lagan uchun naqsh o'ylab topiladi. Chizgan rasmlarini bo'yashda ko'k, havorang, binafsha, jigarrang, yashil, sariq, qora va oq ranglardan foydalaniladi. Shu vaqtda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ranglar

eslab qolishi va to'g'ri foydalanishi uchun har bir rang ko'rsatilib uning nomi aytiladi, undan keyin ishlatiladi.



Barcha o'quvchilar berilgan rasmlarda nimalar tasvirlanganligini nomi bilan aytib berishi lozim.

O'qituvchi rasmni ko'rib bo'lgan o'quvchilardan istagan fikrlarini hamda savollarini berish imkoniyatini taqdim erishi kerak.

O'quvchilarga vatanimizda asrlar davomida o'ziga xos milliy hunarmandlik maktablari shakllanganligi va har bir hududda o'z yo'nalishlari mavjudligi tushuntiriladi.



Samarqand



Chimboy



Rishton



Chust



Andijon



Buxoro

O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda berilgan ma'lumot, rasm hamda rasm nomini uzviyligini ta'minlagan holatda olib borishi zarur.

O'quvchilardan yashayotgan hududda hunarmandchilikning qaysi turi rivojlanganligini so'rashi lozim.

O'qituvchi dastlab o'quvchilardan sevib tanavvul qiladigan ovqatini so'raydi. Onalari uyda oxirgi marta qachon palov qilganligini so'raydi. Undan keyin barcha o'quvchilarga palov haqida "Palov o'zbekning milliy taomi" matni asosida ma'lumot beriladi.

Unda har bir hududda har xil qilib osh damlash;

oshga ishlatiladigan masalliqalar;

"O'zbek palovi" kitobi;

UNESKOning madaniy meroslar ro'yxatiga kiritilganligi tushuntiriladi.



Berilgan matn savollar asosida mustahkamlanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar oshing mazasi qandayligini, nima uchun dunyoga mashhurligini aytib bera olishi lozim.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan

bolalarning ota-onalari bilan birgalikda uyda onasi osh tayyorlaganda qanday ishlarni amalga oshirishi, qanday mahsulotlardan foydalanishini aytib berishi kerak bo'ladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda uyda onasi tomonidan osh tayyorlash jarayonida qanday ishlarni amalga oshirganligi, qanday mahsulotlardan foydalanganligini aytib berishi kerak bo'ladi. Bolalarning faolligiga qarab barcha o'quvchilar tomonidan olqishlanadi.

Darslikning 72-73-sahifasidagi rasmlar asosida turli mamlakatlarning guruchli taomlari bilan tanishtiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham faol qatnashishi uchun dastlab guruchning o'zi haqida



ma'lumot beriladi, his qilishi uchun tabiiy guruch ko'rsatiladi, qo'l bilan ushlab ko'rish imkoniyati beriladi.



Plov (Ozarbayjon)

Chaxan (Yaponiya)




Biryani (Hindiston)



Paloo (Qirg'iziston)



Palav (Tojikiston)



Palau (Qozog'iston)



Pilav (Turkmaniston)



Chelo-kebab (Eron)



Pilav (Turkiya)




Rizotto (Italiya)



Maklyube (Yaqin Sharq)



Jambalayya (AQSh)



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham inobatga olib o'qituvchi har bir rasm va uning sarlavhasini alohida alohida qilib kesib tayyorlab oladi. Undan keyin har bir rasm haqida ma'lumot berganda bola rasimga mos sarlavhani topib berishi kerak bo'ladi. Keyin esa o'qituvchi sarlavha nomini aytadi, bolalar unga mos rasmni topib beradi.

Turli mamlakatlarning guruchli taomlari mavzusi savollar asosida mustahkamlanadi.

“Ko‘ramiz, gaplashamiz, esda qoldiramiz, yaratamiz” metodikasi

Ko'zlangan maqsad o'quvchilarga o'z xalqining an'analari va urf-odatlarini haqida tushuncha berish, madaniy qadriyatlarga nisbatan qiziqish uyg'otishdir.

Dastlab rasmlar orqali tushunchalar beriladi. Navro'z bayrami, toy (*kelin-kuyov liboslari*), sumalak tayyorlash, beshik to'yi, Qurbon hayiti va hokazolar.

Savollar (*oddiy so'zlar bilan*) beriladi: **“Bu rasmda nima bo'layapti?”**, **“Bu odamlar nima qilmoqda?”**, **“Siz bunaqa holatni ko'rganmisiz?”** va hokazolar. Har bir rasimga emoji yoki belgili tushuntirish qo'shish tavsiya qilinadi.

Bolalar bilan oddiy suhbat va muhokama tashkil qilinadi, bu uchun o'qituvchi oddiy savollar beradi: **“Sen qaysi bayramni yaxshi ko'rasan?”**, **“Uyda sumalak tayyorlashni ko'rgansanmi?”**, **“To'yda kim raqsga tushadi?”**. Javoblar variantini rasmlar bilan ko'rsatish mumkin.

Undan keyin **“Bu nima?”** o'yini, rasmni ko'rsatib, nomini aytiladi yoki tanlanadi. **“Qaysi bayramda sumalak pishiramiz?”** (variant: Navro'z), **“Kelinlik libosi qachon kiyiladi?”** (variant: To'yda). Har bir savolga 2 ta oddiy rasmi javob qo'yiladi, shundan to'g'risi tanlanadi.

Bolalarni yaratuvchanlik qobiliyatini oshirish uchun bo'sh joyi bor rasmi varaqalar beriladi. **“Men sumalak pishirayotganimni chizaman”**, **“To'yda raqsga tushayotgan odamni rasimga olaman”**, **“Beshikda yotgan chaqaloqni ranglayman”** deb aytadi. Rasm chizish yoki rang berish topshirig'i – har bir bola o'ziga qulay usulda ifoda etadi.

O'qituvchiga tavsiyalar:

har bir bola bilan individual yondashish (*nutqida muammo bo'lsa – imo-ishora, rasm; eshitishida muammosi bo'lsa – belgilar bilan ishlanadi*);

har bir an'ana haqida maxsus soddalashtirilgan rasmi plakat bo'lishi;

“Yaxshi bajarding”, **“Juda chiroyli rasm chizding”** kabi ijobiy fikrlar aytish mumkin.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda turli mamlakatlarda tayyorlanadigan guruchli taomlarini farqlarini o'rganib keladi.

25-26-dars. O'zbekiston xalqlari madaniyati

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo sinfda osib qo'yilgan maxsus kun tartibi taxtasi orqali ma'lumot beriladi. Unga o'quvchilar har kuni qarab, bugungi kun va sana bilan tanishib olishadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda turli mamlakatlarda tayyorlanadigan guruchli taomlarni bir biridan farqlari aytib beriladi, o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

O'qituvchi darslikning 74-75-sahifasidagi rasmlar asosida **"Biz vatanning farzandlarimiz"** mavzusidagi matnni tushuntiradi.

Darslikda berilgan kalendarga qarab barchaga 30-iyul O'zbekiston xalqlari do'stligi kuni ekanligini ta'kidlaydi.

Matn alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun sinf ichida sahna ko'rinish holatida tashkil qilinadi. Eng faol o'quvchi qiz Oygul vazifasini bajaradi. Oygul vazifasi tayinlangan o'quvchiga qarab unga buvisi hamda oyisi qanday liboslar olib berganligini va bu qoraqalpoqcha libos ekanligini aytadi.

Oygul sinfdoshlariga nom beradi va ularga qarab:

Nuriya – tatar;

Azim – o'zbek;

Zebo – tojik;



Dima – koreys;
Olesya – ukrain;
Ashot – arman;
Ira – rus;
Aydar – qozoq

deb aytadi.

Har bir millatning mashhur taomlari haqida gap ketadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham to'liq tushunib olishi uchun ovqatlar rasmi va tayyorlash jarayonlarini ham tushuntirishadi.



Matn yuzasidan tashkil qilingan sahna ko'rinishi yakunida barcha birgalikda biz hammamiz bir Vatanning farzandlarimiz deb aytadi.

"Biz vatanning farzandlarimiz" mavzusidagi matn berilgan savollarga guruhli bo'lib javob berish bilan mustahkamlanadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda "Mening turli millatga mansub qarindoshlarim, do'stlarim, tanishlarim" mavzusida yuzasidan ma'lumotlar o'rganib kelinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda "Mening turli millatga mansub qarindoshlarim, do'stlarim, tanishlarim" mavzusida yuzasidan to'plab kelgan ma'lumotlari tinglanadi, ko'rib chiqiladi. Barcha o'quvchilarning faolligiga qarab baholanadi.

Hamma o'quvchilarga bizning faxr va g'ururimiz bo'lgan vatanimiz O'zbekistonda turli xalqlarning madaniyati, an'ana va urf-odatlarini hurmat qilinishi va ayoli soni aytib beriladi. Sababi tushuntiriladi.

Yanada tushunarli bo'lishi uchun darslikning 76-sahifasida berilgan QK hamda rasmlardan foydalaniladi.



Ma'lumot tariqasida O'zbekistonda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilishi, shundan kelib chiqib hozirgi kunda yurtimizda 153 ta millat va elatlarning milliy madaniy markazlari mavjudligi aytib o'tiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni O'zbekiston Respublikasining aholisini etnik tarkibi ranglar asosida tushuntiriladi.

Bolalarga miqdor aytilganda rang asosida qaysi etnik tarkib ekanligini aytib berishi lozim bo'ladi.

84.4% O'zbeklar


4,9% Tojiklar

2,4% Qozoqlar

2,1% Ruslar

2,2% Qoraqalpoqlar

4,1% Boshqalar



O'quvchilarni qay darajada tushunib bora yotganligi darslikning 77-sahifasida berilgan savollarga javob olish yo'li bilan tekshiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda so'z bilan aytishda muammolar kuzatilsa yozib berish, ko'rsatish, yuz ifodalari bilan bayon qilish, rasmlar orqali ifodalashga ruxsat beriladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ushbu rasm katta qilib chiqarib beriladi va rasmda ko'rsatilgan har bir narsalar va jarayon aytib berilishi kerak.

Darslikning 78-79-sahifalaridagi milliy liboslar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun ularning har biri alohida qilib chiqarib olinadi. Undan tashqari qaysi millatga tegishli ekanligi alohida qog'ozlarga yozib chiqiladi. Dastlab o'qituvchi tarqatma materiallarni bir biriga moslab qo'yib chiqadi. Bu jarayon yakuniga yetganda milliy libosning nomi aytilsa unga mos rasmni topib yoniga bola qo'yishi kerak bo'ladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar milliy liboslarni bilib olgandan keyin ularni taqqoslashni, ularni o'xshash va farqli tomonlarini, qachon kiyilishini tushuntirish lozim.





Barcha o'quvchilardan milliy bayramlarimizdan qaysilarini bilish so'raladi. Ularning javobiga qarab qo'shimchalar qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun har bir milliy bayram qaysi sanada nishonlanishi va o'ziga xos xususiyatlari, bayram liboslari rasmlar asosida tushuntiriladi.

Berilgan rasmlar va ma'lumotlar asosida O'zbekiston xalqining milliy bayramlari ustida ishlanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham to'liq tushunishi uchun har bir milliy bayramning o'ziga xos tomonlari aytib o'tiladi.

Navro'z bayrami



Sabantuy – tatar xalqining milliy bayrami



Sollal – Koreya xalqining yangi yili



Ko'k choshur – uyg'ur milliy bayrami



O'zbekiston xalqining milliy bayramlari matini mustahkamlash uchun alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan birgalikda guruhlarda ishlanadi. O'zbekistonda yashovchi turli millatlarning bayramlari o'rganiladi, bir biriga o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi va shu asosida hikoya tuziladi. Eng mazmunli hikoya tuzgan guruh g'olib deb topiladi.

“30–40 daqiqalik dars” metodikasi

Ushbu metodikani o'tkazishdan maqsad O'zbekistonda yashovchi turli millatlarning madaniyati – kiyimi, milliy taomlari, bayramlari haqida oddiy va tushunarli tarzda ma'lumot berishdir.

Dastlab oddiy savol-javoblar: **“Sen qanday kiyim kiyasan?”**, **“Uyda qanday taom pishadi?”**, **“Bayramda nima qilasizlar?”** kabi savollar beriladi.

Savollarda javob berishda rasmlar, qo'g'irchoqlar yoki real buyumlar (masalan, do'ppi yoki milliy mato)dan foydalanish imkonini bering. Har bir millatni 3 ta belgisi qisqa videolar yoki ovozli materiallar bilan tanishtiriladi. Bu uchun **“Top va tanla”** (5–10 daqiqa) faol o'yini o'tkaziladi. O'qituvchi rasm ko'rsatadi, bola qaysi millatga tegishli ekanini tanlaydi. Intellektual rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar uchun javob sifatida 2 ta variant taqdim eting. Oxirida bola yoqqan millat madaniyati aks etgan rasmni bo'yaydi yoki chizadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari, buva hamda buvilaridan qadimdan mavjud bo'lib hozirgi vaqtgacha nishonlanib kelinayotgan milliy bayramlar haqida o'rganib kelinadi.

27-dars. O'zbekiston shaharlari


O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo o'yinlar va qo'shiqlar yordamida tushuntiriladi. Shunda kunlar, oylar va ob-havo haqidagi qo'shiqlardan foydalanish orqali bu tushunchalarni qiziqarli va esda qoladigan qilib o'tiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari, buva hamda buvilaridan qadimdan mavjud bo'lib hozirgi vaqtgacha nishonlanib kelinayotgan milliy bayramlari haqida o'rganib kelingan ma'lumotlari eshitiladi va rag'batlantiriladi.

Ushbu dars mashg'uloti qiziqarli bo'lishi uchun guruhlarga bo'lib tashkil qilinadi. Guruhlarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham ishtirokini ta'minlab, ularga tashkiliy vazifalarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar nutqida so'zdagi tovush o'rniga boshqa tovush hosil qilish (masalan; "Ari" o'rniga "ayiq", "mashina" o'rniga "araba", "kitob" o'rniga "kipat" kabi), ovozlari g'ayrioddiy bo'lishi, so'zlarni "Bbb-mo'ri" kabi talaffuz qilishi, suhbat davomida yuzning tarangligi, qoshlarning harakatlanishi, boshning keskin harakatlari kabi istalmagan imo-ishoralar kuzatiladi.


Noto'g'ri nafas olish va qat'iyatsizlik bilan gapirish natijasida g'alati stresslarning paydo bo'lishi, suhbatlar cheklanganligi, ularda so'zlarning repertuari yetarli emasligini inobatga olish zarur.



Mazkur dars barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham yodida qolishi uchun berilgan rasmlar hamda ularni asoslash uchun yozilgan matn uzviyligidan foydalaniladi. Bunda asosiy urg'u har bir joy haqida ta'rif berilganda u yerdagi o'ziga xoslikka ahamiyat beriladi.

Rasm ko'rsatilganda alohida ta'lim

ehtiyojlari bo'lgan bolalar aynan shu rasm haqida ta'kidlab bera olishi kerak bo'ladi. Bu bosqich tushunarli bo'lgandan keyin ta'rif beriladi, bola qaysi rasm ekanligini topadi.



Berilgan rasm hamda matnlar haqida ishlab, tushuntirilgandan keyin barcha o'quvchilarga Buyuk ipak yo'li haqida ma'lumot beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ma'lumot berish uchun Buyuk ipak yo'li rasm ko'rsatilib batafsil tarixi haqida tushuntirish beriladi.

Berilgan suratlarga qarab diqqatga sazovor joylari bo'lgan qaysi shaharlarda joylashganligini topishadi.

O'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida O'zbekiston shaharlari haqida savollar tayyorlanib bir biri bilan almashib savollariga javoblar topiladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda **“Men yashaydigan hudud nimasi bilan mashhur?”** mavzusida kichik insho yozib kelinadi.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo haqida ma'lumot berishda maxsus kartalar (masalan, quyoshli, yomg'irli, qorli, tumanli)dan foydalaning. Iloji bo'lsa, ob-havoni sinfda yoki tashqarida his qilish imkoniyatini bering (quyoshli yoki yomg'irli kunda tashqariga chiqish).

Undan tashqari ob-havo ovozlari o'zida aks etgan tovush chiqaruvchi karnaychalardan ham foydalanish mumkin.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda **"Men yashaydigan hudud nimasi bilan mashhur?"** mavzusida yozib kelgan kichik inshosi o'qiladi va ta'riflab berish so'raladi. Undan keyin rag'batlantiriladi.

Muzeylar haqida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga batafsil ma'lumot berish uchun darslik qahramonlari **Akmal** va **Madina** yordamidan foydalaniladi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar to'xtovsiz ovoz chiqargani bilan mazmunli nutq chiqmaslik holati kuzatilishi, ayrim holatlarda nutq chiqarish vaqtida ovozi zaif chiqishi, fikrini ifodalash jarayonida so'zlarni o'rniga imo-ishora va boshqa harakatlardan foydalanishi, nutqi jinsi va yoshiga mos kelmaslik holatlari kuzatilishi mumkin.

	Akmal Madinaga muzeyga borganligi va muzeyga borganda eksponatlarga qo'l bilan teginish, qadimiy suratlarni rasmga olish mumkin emasligini aytadi.	
--	---	--



O'qituvchi barcha o'quvchilarga:

"Muzey" so'zining ma'nosi;
muzeylar nima uchun kerakligi kabilarni tushuntirib beradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham tasavvurida qolishi uchun muzeydagi eksponatlarning rasmlari ko'rsatiladi.



“O‘z o‘tmishini, tarixini bilmagan xalqning kelajagi bo‘lmaydi” xalq o‘g‘itni mazmuni tushuntiriladi va barcha yodida saqlashi so‘raladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga muzeylarda qanday tartib-qoidalarga rioya qilish yuzasidan muhokama qilinadi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ham muzeydagi tartib-qoidalarni sinf ichida o‘rnatilgan tartib-qoidalarga bog‘lab tushuntirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bolalardan sinf va muzey tartib-qoidalarining o‘xshash, farqli tomonlari taqqoslab aytiladi.



O‘qituvchi **“Ekspонат”** deb muzey yoki ko‘rgazmalarga tomosha qilish uchun qo‘yilgan buyum ekanligini aytadi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ekspонат so‘zining ma‘nosini sinfdagi noyobroq bo‘lgan buyumlarga bog‘lab tushuntirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Undan tashqari rasmda berilgan muzeydagi ekponatlarning har birini nomi aytilib bittadan tushuntiriladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ota-onalari bilan birgalikda darslikning 88-sahifasidagi muzeydagi bolaning o‘ziga yoqqan bitta ekspонат haqida hikoya yozishadi.

Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ota-onalari ko‘magida darslikning 88-sahifasida berilgan muzeydagi bolaga yoqqan ekspонат haqida yozib kelgan hikoyasi tekshiriladi. Bolaga yozib kelgan hikoyasini og‘zaki aytib berish imkoniyatini taqdim etsa ham bo‘ladi.

Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga o‘qituvchi biz sinfimizni o‘zimiz kelajak avlod uchun qanday asrasak muzeydagi ekspонатlarni ham asrash, u yerdagi ichki tartib qoidalarga rioya qilish zarurligini tushuntiradi.

Muzeylarda turli kasb egalari xizmat qiladi:

posbonlar ekspонатlarni qo‘riqlaydi;

ilmiy xodimlar tadqiqotlar olib boradi;

ta‘mirchilar shikastlangan ekspонатlarni butlaydi;

gidlar muzeydagi ekspонатlar haqida so‘zlab beradi. Bu gapi vazifa egalarini tushuntirish uchun rasmini alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatib tushuntirish lozim.

Barcha o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib **“Muzeyda bir kun”** nomli qisqa hikoya tuziladi. Bu jarayonda tashkiliy ishlarni alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga muzey turlari har birining rasmi ularning rasmi, nimalar saqlanishi, qayerda joylashganligi kabilar asosida tushuntiriladi. Ya'ni:

- tarixiy muzeylarda qadimiy osori atiqalar;
- san'at muzeylarida san'at asarlari, haykallar;
- jonli san'at muzeyi, astronomiya muzeyi, geologiya muzeylari ilmiy muzeylar hisoblanishi;
- politehnika muzeylarida fizikaga qonunlarining qanday ishlanishi;
- taniqli yozuvchi, rassom, va sozandalarning hayoti va ijodiga bag'ishlangan muzeylar bilan tanishtiriladi.

Muzeylardagi o'xshashliklar, farqlar haqida sinfdoshlar bilan suhbat tashkil qilish yo'li bilan mavzu mustahkamlanadi.

O'zbekistondagi muzeylar darslikning 90-91-sahifasida berilgan rasm hamda ma'lumotlar asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushuntiriladi. Bolalarning yodida saqlanishi uchun muzey joylashgan har bir hudud boshqa hududlardan ajralib turadigan narsalari bilan bog'lab tushuntiriladi.

Toshkentdagi O'zbekiston davlat san'at muzeyi

(Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar eslab qolishi uchun muzeydagi saqlanayotgan narsalar rasmi ko'rsatilishi maqsadga muvofiq).



Mo'ynoqdagi Orol dengizi tarixiy muzeyi





Buxoro davlat qo'riqxonona-muzeyi

Buxoro davlat qo'riqxonona-muzeyi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga Arkning qurilishi haqidagi xalq afsonasi bilan bog'lab tushuntiriladi. Bolalarga to'liq tushuncha hosil bo'lishi uchun obrazga kirib tushuntirish zarur.

Muzeylar haqida tushuntirish berilgandan keyin yana qaysi muzeylar borligi va ular orasidan qaysiga borishni xohlashlari so'raladi.

“Ko'r, eshit, his et, o'rgan” metodikasi

Ko'zlangan maqsad O'zbekistonning qadimiy va ko'hna shaharlarini tanitishdir.

Dastlab bolalarga O'zbekiston xaritasi ko'rsatiladi. O'qituvchi: **“Bu bizning yurtimiz – O'zbekiston, unda ko'p shaharlar bor”** deb aytadi. **Masalan**, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona.

Har biri uchun alohida (*masalan, Toshkent – metro, Samarqand – Registon*) rasm bilan ko'rsatiladi.

Bunda vizual va harakatli o'yinlar orqali eslab qolishni osonlashtiriladi. Shuningdek, oddiy harakatli o'yin yoki yasash topshirig'i (*Masalan, Samarqand uchun gumbaz yasash*) orqali yanada mukammal tushuntirish mumkin. Mustahkamlash uchun har bir bola yoqtirgan shahar rasmini tanlaydi va nuqtalar o'rnini fikrlari bilan to'ldiradi. **“Men ... shaharga bormoqchiman, chunki ...”** deb gapiradi.

Metodikani o'tkazish davomida rasmlar, imo-ishora tilidan foydalanish, jarayonda bolaga tanlash imkoniyatini berish, tayanch harakatida muammosi bo'lgan bolalar uchun topshiriqlarni stol ustida bajarishga imkoniyat beriladi.



Uyga vazifa beriladi. Uyda O'zbekiston muzeylaridan biriga virtual sayohat tashkil qilish so'raladi, keyingi darsda sayohat davomidagi taassurotlar bilan bo'lishiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onalariga farzandini biror muzeyga sayohat qilish tavsiya qilinadi.

30-dars. O‘zbekiston bo‘ylab sayohat

O‘quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko‘rgazmali qurollar hamda tabiatga bog‘lagan holatda tushuntiriladi.

Uyda O‘zbekiston muzeylaridan biriga tashkil qilingan virtual sayohat davomidagi taassurotlar bilan o‘rtoqlashiladi.

Agar ota-onasi bilan Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan biror muzeyga sayohat qilishgan bo‘lsa qanday eksponatlarni ko‘rganligini aytib beradi.

Mazkur mavzuni tushuntirish orqali alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda vatanparvarlik, faxr va g‘urur tuyg‘ularini, o‘z vatanini sevish, asrab-avaylash kabi tuyg‘ular shakllantiriladi.

Eslatma: Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalarda yozilgan yoki og‘zaki aytilgan vazifalarni tushunishi, ma‘lumotlardan foydalanish, zarur bo‘lganda qidirish jarayonlarida, shuningdek tinglash, gapirish, o‘qish, yozish, imlo, diqqatni jamlash yoki matematik operatsiyalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishini inobatga olish lozim.

Mavzu Lola ismli qizni o‘rtoqlari bilan birgalikda sayohatga bormoqchi bo‘lishi yoritilgan matn bilan tushuntiriladi. Bunda O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan tortib eng olis hududlarigacha bo‘lgan joylar tanishtiriladi.

Darslikda berilgan rasmlar hamda ma‘lumotlar asosida mavzu ochib beriladi. O‘qituvchi har bir rasmni o‘ziga tegishli bo‘lgan ma‘lumotlar bilan bog‘lab ko‘rsatib ishlaydi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni hushyorligini oshirish maqsadida tushuntirish davomida birorta rasmni olib u qaysi ma‘lumotga mosh kelishini so‘raydi.

Har bir joy nomi rasm va matn asosida tushuntirilayotgan vaqti alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni yodida qolishi uchun ma‘lum bir alohida ahamiyatga sazovor bo‘lgan predmetga bog‘lab tushuntirish maqsadiga muvofiqdir.





Hoji Bog'bon ota




Oqsaroy



Baday-To'qay qo'riqxonasi



Xonbandi to'g'oni




Chilpiq qal'a




Shohruxiya

Mazkur rasmlarni o'qituvchi har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'lini rasmlarga qo'yib ko'rsatishi tavsiya qilinadi.




Orol dengizi




Kampirtepa




Qirg'iz qal'asi




Langar



Qoratepa tog'i



Fayoztepa



Xuddi shunday sinf doskasiga tanishtirib o'tilgan mashhur joylar ilib qo'yiladi va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan joy nomlari so'raladi.

Mazkur berilgan rasmlar orasidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar eng yoqtirgan uchtasini aytib berishi so'raladi. Berilgan rasmlardan yoqtirgan joylarini rasmini ko'rsatib berishi kerak.

Undan tashqari oila a'zolari bilan birgalikda qaysi joylarga borgan bo'lsa o'sha joy haqida o'rtoqlariga aytib berishi kerak.



Sayohatga borganda o'zi bilan nimalar olib borishi, sayohat odobini yodimizdan chiqarmasligimiz ta'kidlab o'tiladi.



Darslikning 98-sahifasida berilgan rasmlar asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar qo'riqxonalar bilan tanishtiriladi. O'zbekistondagi mavjud qo'riqxonalar, yaratishdan maqsad, UNESKOning Butunjahon

merosi ro'yxatiga kirilganligi, tartib-qoidalar va ularning buzilish nimalarga olib kelishi aytiladi.

Hayvonot olami Qizil kitob misolida tushuntiriladi. Qizil kitobning ta'rifi, nima uchun bunday nom berilganligi aytiladi. Ko'rgazmali qurollar orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladi.



Barcha o'quvchilarga tabiatni asrab-avaylash uchun qilgan xatti-harakatlarimiz atrof-muhitga, hayvonot va nabotot olamiga zarar yetkazmasligi tushuntiriladi.

30-dars



Rasm asosida lolalar haqida umumiy ma'lumot beriladi. **Lolalar** kamayib ketayotganligi uchun Qizil kitobga kiritilganligi aytib o'tiladi.



Rasm asosida Qulasa daryosi haqida umumiy ma'lumot beriladi. Undan tashqari sharsharalar haqida ham aytib o'tiladi.

Berilgan rasmlar diqqat bilan kuzatiladi. Rasmga qarab alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan rasmdan nimalarni tushunganliklari, taniganlari so'rab olinadi. Ushbu rasm asosida o'qituvchi "Inson – tabiatning bir qismidir" jumlasini tushuntiriladi.

Rasmdan olgan taassurotlar asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar shu vaqtgacha bo'lgan o'zini hayratga solgan hodisani aytib beradi.



“Sayohat qilamiz va o‘rganamiz” metodikasi

O‘zbekistonning mashhur shahar va joylari bilan tanishtirish, tushunish, eslab qolish va ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish, bolalarda Vatanga bo‘lgan qiziqish va mehr uyg‘otish maqsad qilib olinadi.


Katta O‘zbekiston xaritasi va avtobus maketi olinadi. Avtobusni xarita bo‘ylab harakatlantiriladi (*magnitli yoki qo‘l bilan ko‘rsatiladi*). Har bir shaharga borganda rasmlar orqali mazkur joy ta’riflanadi (*Registon, Minorai Kalon, Xiva devorlari, Toshkent minorasi, Farg‘ona bog‘lari*). Oddiy fakt: **“Samarqandda Registon bor”, “Xiva qadimiy shahar”** deb og‘zaki tushuntirish ham mumkin.

O‘qituvchilar tomonidan qaysi shahar bolalarga yoqqanligini aniqlash maqsadida **“Shaharga atab rasm chizamiz”** deb aytadi. Bolalar har biri tanlagan shaharning asosiy belgilarini rasmda ifodalaydi.


Mustahkamlash maqsadida savol-javob (5 daqiqa) tashkil qilinadi. Misol uchun: **“Qaysi shaharda metro bor?”**, **“Tog‘li joy qayerda edi?”**. Har bir bola o‘zi yoqtirgan va sayohat qilishni xohlagan joyi haqida bitta gap bilan aytadi yoki rasmi bilan ko‘rsatadi.

31-32-dars. Takrorlash

Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham o'tilgan darslar yuzasidan egallagan ko'nikmalari takrorlanadi. Bu uchun o'tilgan darslar orasidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar qiziqib tinglagan va tushunchalarga ega bo'lgan mavzulardan kelib chiqib qolgan mavzularni ham takrorlash tavsiya qilinadi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar takrorlash jarayonida suratlar, rangli grafikalar, vizual materiallar, o'yinlar, interfaol mashqlar, mavzuga oid savol-javoblar, xotira kartochkalari, barmoq o'yinlari, mavzularda qo'llanilgan mashqlarni ovozli vositalar yordamidan foydalanish, amaliy mashg'ulotlar (matematik tushunchalarni oshxona ishlarida qo'llash yoki tabiat haqidagi bilimlarni tashqi muhitda ko'rsatish)dan foydalaniladi.



33-dars. Mustahkamlash

O'tilgan mavzularni mustahkamlashda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qo'llaniladigan eng ma'qul usul bu takrorlashdir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga darslikda o'tilgan darslarni mustahkamlash uchun moslashuvchan qiziqarli yondashuvlarni qo'llash universal usul hisoblanadi.

Bunda: Qadam-baqadam takrorlash, ortiqcha yuklanishlarni kamaytirish, ko'rgazmali qurollardan manipulyativlar, rangli kartochkalar, maketlar, sensorli o'rganish usullari, qum, loy, mato kabi vositalardan foydalanish, rolli o'yinlari, tarixiy mavzularni o'rgatishda bolalar turli xil obrazlarga kirishlari orqali mavzuni qiziqarli va yaxshi eslab qoladigan shaklda tashkil qilish, qisqa vaqtli va ko'p martalik takrorlash usullari, ma'lumotlarni rang-barang va qiziqarli tarzda taqdim qilish, animatsiyalar orqali mavzuni yanada jonli va rang-barang qilish, mavzuga oid o'yin va mashqlar, matematik mavzuni mustahkamlash uchun raqamlar bilan bog'liq o'yinlar tashkil qilish hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlanadi, rag'batlantiradi.

Berilgan yondashuvlar asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar darslarni mustahkamlash jarayoni samarali va qulay bo'ladi, bu esa ularning bilim va ko'nikmalarini yanada yaxshilash sabab bo'ladi.



34-dars. Yakuniy dars

Barcha o'qituvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham o'tilgan darslar davomida egallagan ko'nikmalari alohida e'tirof etiladi.

O'qituvchi hamda boshqa (sog'lom) o'quvchilar tomonidan olqishlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yozgi ta'til davomida vaqtni mazmunli o'tkazish, kitob o'qish, ota-onalariga yordam berish, sayohat qilish, maktab davomida o'rgatilgan tartib-qoidalarga rioya qilish kabilarni yodida saqlash tushuntiriladi.



O'qituvchilar uchun tavsiyalar

Inklyuziv ta'limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi.

Shunday ekan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim sinflarining tashkil etilishi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kelajagiga ijobiy ta'sir etish bilan bir qatorda boshqa (sog'lom) bolalarning ham hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi degan savol tug'ilishi mumkin.

o'zlariga o'xshamagan tengdoshlari, ularning hayoti, ehtiyojlarini his qilishni o'rganadi;

tengdoshlariga nisbatan g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;

qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish, insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

o'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklangan shaxslarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat ruhi shakllanadi;

yordamga muhtoj shaxslarga e'tiborsizlik qilmaydigan o'quvchilarga aylanadi;

shukronalik hissi uyg'onadi;

o'zini boshqalarga yordami tegayotganligidan faxrlanadi.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga esa:

o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;

mustaqil harakatlanish, birgalikda yurish, hamkorlikda ishlash imkoniyati yuzaga keladi;

dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;

o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

oldin sezilmagan imkoniyatlari yuzaga chiqadi;

yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi;

ijtimoiy hayotga moslashadi.

Hozirgi kunda innovatsion bilim, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollangan o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda tashqi ko'rinish madaniyatiga e'tibor bilan qarashi, o'zida zamon talabi darajasidagi tashqi qiyofani odat qilishi maqsadga muvofiq. O'qituvchi har doim o'quvchilar bilan bir qatorda ijtimoiy jamiyatning har qanday sohasida faoliyat olib borayotgan insonlarga o'rnak bo'lishi zamon talabi darajasi deb qarashi zarur.

O'qituvchining tashqi qiyofasi ya'ni, kiyinish uslubi ko'pincha uning ichki dunyosi, madaniyatini aks ettiradi. Toza, ozoda, qulay, ko'zga tashlanmaydigan, kiyinish madaniyatiga amal qilib yursa o'quvchilar uchun ibrat bo'la oladi. O'qituvchining butun qiyofasi bolalarni o'quv jarayonidan chalg'itmasligi ularning o'z oldiga qo'yilgan asosiy talablari sirasiga kiradi.

O'qituvchining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tilini o'zida aks ettiruvchi, zamonaviy texnika, texnologiya, xalqaro qabul qilingan terminologiyalardan to'g'ri va o'rinli qo'llashi hozirgi zamon talabi darajasida

bo'lishi lozim. Agar o'tiladigan dars mashg'uloti mavzusi o'qish, hikoya, xalq o'g'itlari, maqol, tez aytish bo'lsa, obrazga kirib, bolaning qalbiga kirib boradigan darajada qiziqтира olishi talab etiladi.

Mashg'ulot mavzusi og'zaki bayon etish, tushuntirishdan iborat bo'lsa, nutq tekis, ravon, bir maromda va osoyishta bo'lishi maqsadga muvofiq. Butun jarayonda o'qituvchi o'z nutqining grammatik va leksik savodxonligiga e'tibor bergan holda sustkashlikka yo'l qo'ymasdan, kerakli o'rinda obrazli qilib, o'quvchilar havas bilan taqlid qiladigan darajada to'g'ri til ko'nikmalariga e'tibor qaratilishi lozim.

Shu o'rinda barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning nutqni to'g'ri va savodli egallashi uchun aynan o'qituvchiga taqlid qilish orqali amalga oshirilishi hisobga olinishi zarur. Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi yuqori darajada xushmuomalalik va sabr-toqatni namoyon qilishi, qo'pollik va hurmatsizlikka mutlaqo yo'l qo'ymasligi talab qilinadi.

O'quvchi bilan muloqot do'stona ruhda, optimistik kayfiyatda bo'lishi talab etiladi. O'qituvchining bolalarga berayotgan har qanday ma'lumotida insonparvarlik, samimiylilik aks etib turishi, inklyuziv ta'limda faoliyat olib borayotgan bunday o'qituvchi bilan bir marta muloqotga kirishgan shaxs (ota, ona, bola) da u bilan yana suhbatlashish, muammolari bilan dardlashish istagi paydo bo'ladigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Shunda ko'zlangan maqsadga tez va samarali erishish mumkin.

Inklyuziv ta'limda faoliyat olib boradigan o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri muloqot qobiliyatiga, gnostik ko'nikma, didaktik mahorat, o'yin qobiliyati, tashkiliy ko'nikmalar, kommunikativ-rejissyorlik, prognostik va aks ettirish qobiliyatlari hamda ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Undan tashqari doimiy ravishda motivatsion ko'nikmalarni ham rivojlantirib borishi, ya'ni, o'quv jarayonida bolalar nima o'rganayotganlarini va bu qanday yordam berishi mumkinligini anglashi, ularning istak-xohishlarini aniqlay olishi lozim.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qituvchi tomonidan darsda o'qish vaqtida darslikni ochishda, kerakli sahifani topishda, qayerda o'qishimizni ko'rsatishda yordam berilishi kerak. Bunday holatlar nafaqat inklyuziv sinflarda balki barcha sinflarda ham uchraydi. Bu holda bola ba'zi sabablarga ko'ra darsning borishini kuzatishni istamaydi va tanqidga uchraydi. Shuning uchun ularga yordam berilishi kerak.

Dars davomida siz topshiriqlarni bajarish vaqtini ko'proq qilishingiz kerak (agar bu matn uchun savollar bo'lsa, unda siz 3 ta yoki 4 ta savollarni muhokama qilishingiz mumkin). Shuningdek, matnni to'liq o'qimaslik tavsiya etiladi, chunki bolalar juda tez charchaydi.

Savollarga javob berganda, respondentga o'ylash uchun biroz ko'proq vaqt berilishi kerak (bolalarning reaksiyasi sekinlashish holati kuzatilishi mumkin). Yozma ish, testlar ancha vaqt talab etilishi (o'qituvchining yordami kerak, ya'ni, daftar toping, daftarni oching, daftar, qalam toping va h.k.) inobatga olib bunday holatda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun vazifani quyidagicha shakllantirishingiz kerak:

topshiriq og'zaki va yozma ravishda tuzilishi kerak;
vazifa qisqa, aniq, bitta harakatni ifodalaydigan, bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi;
vazifalarni shakllantirishda yakuniy mahsulotni ko'rsating (tayyor matn, matematik muammoning yechimi va hokazo);
vazifani bola bilan birga shakllantirish;
bolaga ishni tugatish imkoniyatini berish;
bolani to'g'ri baholash ya'ni bolaning salbiy tomonini emas, balki uning yaxshi xulq-atvorini ta'kidlashga harakat qilish;
intizomiy kichik buzilishlariga e'tibor bermaslik;
bola yaxshi baho olishi uchun topshiriqni qayta yozishiga, o'qishiga ijozat berish (keyinchalik qayta ishlangan ish uchun bahoni hisoblash);
bolani baholashda iqtidori, imkoniyatidan kelib chiqqan holda baholash tizimidan foydalanish;
agar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola butun sinf oldida javob berishi qiyin bo'lsa, unda unga tugallangan topshiriqni kichik guruhlarda o'rtoqlarining yordamidan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 1-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2024-yil.
- 2.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 2-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2022-yil.
- 3.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 3-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2023-yil.
- 4.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 4-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2023-yil.
- 5.** S.Mo'minov, Sh.Axmedova, G.Alimova "Inklyuziv sinfdagi maxsus o'qituvchining alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikasi" nomli metodik qo'llanma, Toshkent, 2022-yil.
- 6.** S.Mo'minov, G.Alimova "Mashg'ulotlarda interfaol usullar" metodik qo'llanma, Toshkent, 2025-yil.
- 7.** G.Alimova, S.Mo'minov "Inklyuziv ta'limda korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlar" metodik qo'llanma, Toshkent, 2025-yil.

Mundarija

3-sinf

Kirish.....	3
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish.....	6
1-dars. Vatanim haqida nimalarni bilaman?.....	13
2-dars. O'zbekiston xalqi-Vatanimiz faxri.....	9
3-darslar. Men yashaydigan olam.....	16
4-6-darslar. Sayyoramizga nimalar xavf solmoqda?.....	18
7-dars. Biz qanday dunyoda yashashni istaymiz?.....	23
8-9-dars. Tenglik nima?.....	26
10-11-dars. Kamsitish nima?.....	29
12-13-dars. Sinfdagi muhit.....	35
14-dars. Volontyorlik.....	40
15-dars. Men hayotni sevaman!.....	44
16-18-dars. His-tuyg'ularimiz.....	47
19-dars. Mening odatlarim.....	52
20-dars. Mening sog'ligim.....	56
21-22-dars. O'zimni boshqaraman.....	61
23-24-dars. An'analar –xalq xotirasidir.....	64
25-26-dars. O'zbekiston xalqlari madaniyati.....	73
27-dars. O'zbekiston shaharlari.....	80
28-29-dars. Muzeylar – moziy ko'zgusi.....	58
30-dars. O'zbekiston bo'ylab sayohat.....	86
31-32-dars. Takrorlash.....	95
33-dars. Mustahkamlash.....	96
34-dars. Yakuniy dars	97
O'qituvchilar uchun tavsiyalar.....	98
Foydalanilgan adabiyotlar.....	101